

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 332:336.564.2

Allaberganov Mirzabek Ulug'bekovich

**“Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq rag'batlari va
imtiyozlarining roli”**

**Ixtisoslik: 5A 230102 - “Iqtisodiyot” (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisligi
bo'yicha**

Iqtisodiyot magistri akademik darajasini olish uchun

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va
himoyaga qo'yildi.

“Iqtisodiyot”

kafedrasi mudiri,

dots. Matyaqubov U.R.

“ ”

2016 y.

Ilmiy rahbar

dots. Gulmanov M.



Urganch – 2016 y.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Soliq imtiyozlari yordamida mintaqalar iqtisodiyotini tartibga solish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashning nazariy asoslari.	
1.1. Demokratik bozor islohotlari sharoitida soliq rag'batlari va imtiyozlari vositasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashning nazariy asoslari.....	8
1.2. Mintaqalar iqtisodiyotini soliqlar vositasida rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalari.....	15
1.3. Mintaqalarni soliqlar vositasida rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	27
1-bob bo'yicha xulosa	35
2-bob. Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning joriy holati tahlili.	
2.1. Mintaqada soliq islohotlari va tadbirkorlik subyektlarini soliqlar orqali rag'batlantirishning mavjud mexanizmlari.....	36
2.2. Soliq stavkalarining Xorazm viloyati budjetini shakllantirishdagi rolini baholash.....	46
2.3. Xorazm viloyati iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlarining hozirgi holati tahlili.....	59
2-bob bo'yicha xulosa	67
3-bob. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida soliq rag'batlarini hamda imtiyozlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.	
3.1. Xorazm viloyati asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini shakllanishida soliq imtiyozlari ta'sirini baholash	68
3.2. Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq va soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari.....	78
3-bob bo'yicha xulosa	87
Xulosa va takliflar	88
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	92
Ilovalar	100

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hamda xalq farovonligi yildan-yilga jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Buning zamirida oqilona o'ylangan tub islohotlarimiz yotibdi. Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishga, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgandir. Shubhasiz, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida uning mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining yuqoriligi alohida o'rin tutadi. Shu bois, respublikamiz hukumati tomonidan keyingi yillarda mamlakat mintaqalarini hamda iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror va mutanosib rivojlantirish bo'yicha soliq qonunchiligida ham bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, xo'jalik yurituvchi subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash va ular faoliyatini erkinlashtirish maqsadida soliq imtiyozlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda hamda nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar soni sezilarli darajada qisqartirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi"¹.

Butun jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy asoratlari saqlanib qolgan bir davrda, mamlakatimizda rag'batlantiruvchi soliq siyosati orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq rag'batlari va imtiyozlarini samarali takomillashtirish masalalari amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida yetakchi o'ringa ko'tarilgan. Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda: "Soliq

¹Ўзбекистон Президенти Ислам Каримовнинг мамлакатимизни 2014 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2015 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги "2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир" маърузаси. // Халқ сўзи, 2015й, 17 январ, 2 бет.

siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi"².

Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida, yangi korxonalarini tashkil qilish, mavjudlarini texnik va texnologik jihatdan zamonaviylashtirish va shu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlanishiga ta'sir etish omillari ichida soliqlar muhim o'rin tutadi. Soliqlarni omil sifatidagi ta'sirini takomillashtirish va barqarorlashtirish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va unga soliq tizimi ta'sirini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, shu jumladan, hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning ayrim masalalari qator xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik iqtisodchi-olimlardan N.Baranskiy, V.Bard, A.Veber, L.Drobozina, I.Haravayeva, V.Knyazev, V.Kristaller, N.Kolosovskiy, A.Lesh, N.Milyakov, V.Panskov, V.Pushharyeva, D.Rikardo, V.Rodionova, M.Romanovskiy, A.Smit, I.Tyunen, D.Chernik, T.Yutkinani ko'rsatish mumkin.

Mamlakatimiz olimlaridan soliqlarning hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini hamda iqtisodiyotni rivojlantirishda soliq tizimining samaradorligini oshirishga doir B.Abibullayev, M.Abdusalyamov, K.Abduraxmonov, M.Almardonov, A.Vaxobov, E.Gadoyev, Sh.Gataulin, J.Esmurzayev, I.Jalolov, A.Jurayev, J.Zaynalov, D.Madirimov, T.Malikov, A.Mamanazarov, O.Olimjonov, B.Ruzmetov, A.Sodikov, A.Soliyev, N.Tilabov, Sh.Toshmatov, B.Toshmurodova, M.Sharifxujayev, F.Egamberdiyev, G.Erkayeva, K.Yaxyoyev, A.Kdyumov, X.Krbulov, N.Xaydarovlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

² Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.

Masalan, Sanakulova Barnogul Rizaqulovning³ tadqiqot ishi kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash, X.Qobulovning⁴ tadqiqot ishi hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini oshirish, J.Esmurzayevning⁵ tadqiqot ishi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy soliqlar va yig'implarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Shunga qaramasdan, respublikamiz iqtisodchilari tomonidan hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda soliq tizimining samaradorligini, soliqlarning ahamiyatini oshirishga doir yaxlit, kompleks tarzda ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Bu o'z navbatida, hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda soliqlarning ahamiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishni, davr talabiga mos ravishda yanada takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishining mavzusi O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga mos keladi va Urganch davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq rag'batlari va imtiyozlarining rolini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olingan:

- soliq rag'batlari va imtiyozlari vositasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashning nazariy asoslarini hamda xorij tajribasini o'rganib chiqish;

³ Санакулова Б.Р. Кичик тadbirkorlik субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент: БМА, 2016. - 30 б

⁴ Қобулов Х.А. Худудий иқтисодиёт ва маҳаллий бюджетлар имкониятларини ошириш йўналишлари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун узилган дис. автореферати. - Тошкент: БМА, 2006. - 21 б.

⁵ Есмурзаев Ж.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шaroитида маҳаллий солиқлар ва йигимларни ундириш механизмини такомиллаштириш (Коракалпоғистон Республикаси мисолида). И.ф.н. илмий даражасини олиш учун узилган дис. автореферати. - Тошкент: БМА, 2007. - 20 б.

- Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash;
- soliq imtiyozlari va stavkalarining mintaqa budjetiga ta'sirini aniqlash
- viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq va soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;
- mintaqa budjeti shakllanishida shahar va tumanlarning ulushini tahlil etish;
- Xorazm viloyatini soliqlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq rag'batlari va imtiyozlarining ta'siri, **predmeti** Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq imtiyozlari va rag'batlarini joriy qilish va ularni amalga oshirishga doir munosabatlar.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida qiyosiy-tadrijiy tahlil, statistik-matematik, statistik guruhlash, regression va korrelyatsion tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning respublikamiz, xususan, mintaqalar iqtisodiyotini yuksaltirishga bag'ishlangan asarlari, vatanimiz va xorijiy olimlarning mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan ishlari, internet tarmog'i saytlaridan ushbu mavzuga oid olingan ma'lumotlar hisoblanadi. Tadqiqotning axborot bazasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Soliq boshqarmasining ma'lumotlari hisoblanadi.

Magistrlik ishining asosiy ilmiy yangiligi mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq imtiyozlari va rag'batlarini hamda samarasini tadqiq qilish natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiya hamda takliflar bilan ifodalanadi. Jumladan:

- mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda soliq va soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash masalalari tadqiq qilingan;

- soliq imtiyozlarining Xorazm viloyati budjetiga ta'siri tahlil qilingan;
- soliq stavkalarining Xorazm viloyati budjetiga ta'siri tahlil qilingan;
- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq va soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari tahlil qilingan;
- Xorazm viloyatini soliqlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ilmiy ish, kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib jami hajmi 103 betni tashkil etadi. Unda 16 dan ortiq jadval va 13 ta chizma, 8 ta formula, hamda 4 ta ilova keltirilgan.

Birinchi bobda soliq rag'batlari va imtiyozlari yordamida mintaqalar iqtisodiyotini tartibga solish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari yoritib berilgan. Ikkinchi bobda Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning joriy holati tahlili keltirilgan. Uchinchi bobda Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida soliq rag'batlari hamda imtiyozlarini takomillashtirishning istiqbollari, ustuvor yo'nalishlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining **ilmiy va amaliy ahamiyati** shundaki, undan olingan ilmiy xulosalar va tavsiyalardan, nazariy materiallardan mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha soliq imtiyoz va rag'batlarini joriy qilishda, Oliy o'quv yurtlarida "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Moliya va soliq", "Soliq va soliqqa tortish" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Dissertatsiya natijalari yuzasidan 4 ta ilmiy maqola va 1 ta tezis chop etilgan. Shuningdek, dissertatsiyaning asosiy ilmiy g'oyalari va xulosalari 2015-yil 3- mart kuni o'tkazilgan «*Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning demografik muammolari*» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanida, UrDU magistrLARining an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanida muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

1-BOB. SOLIQ IMTIYOZLARI YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISH VA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Demokratik bozor islohotlari sharoitida soliq rag'batlari va imtiyozlari vositasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashning nazariy asoslari.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan sharoitda soliqlar davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Soliqlar o'zaro xo'jalik va siyosiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan davlat uchun yagona iqtisodiy maydonini tashkil etishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Yurtimizda soliq qonunchiligiga e'tibor qiladigan bo'lsak, soliq mazmunini quyidagicha bayon qilishimiz mumkin, "soliqlar deganda soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi."⁶

Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda, jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.⁷

Jahon amaliyotida soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan birga, iqtisodiyotni tartibga solishda ham faol ishtirok etadi. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solish masalalari davlat tomonidan bozorni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga

⁶ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr - O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. - T.: "Adolat", 2014. 2-bob, 12-modda, 8-bet

⁷ A.Vahobov.Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: "Sharq", 2009. – 6 b

solishning turli usullari mavjud. “.... Davlat tomonidan bozorni boshqarishning iqtisodiy, ma’muriy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik usullari mavjuddir. Iqtisodiy usullarga asosan pul-kredit siyosati, moliya-budjet mexanizmi, bahoni shakllantirish, iqtisodiy dasturlash hamda davlat tadbirkorligi kiradi”⁸. Tadqiqotimizdan asosiy maqsadimiz davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish masalalarini emas, balki iqtisodiyotni soliqlar orqali tartibga solish va ular orqali iqtisodiy barqarorlikni (shu jumladan, hududiy iqtisodiy barqarorlikni) ta’minlashni tadqiq etish hisoblanadi. Shu bois, soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga solishga doir klassik va zamonaviy fikrlarni tadqiq qilish va ularni umumlashtirgan holda xulosalar chiqarishga e’tibor qaratamiz.

Soliqlarga doir nazariyalarning shakllanishi va rivojlanishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, dastlabki nazariyalarda soliqlarga asosan fiskal nuqtai-nazardan baho berilgan va ularning fiskalligini e’tiborga olgan holda yondashilgan. Jumladan, soliqqa tortishning klassik nazariyasida soliqlar faqat davlat budjeti daromadlarini shakllantirish manbai sifatida o’rganilgan. Soliqlarga doir ilmiy nazariyalar asosan soliqqa tortish printsiplari, undirish usullari, soliqqa tortishning adolatli darajasini ishlab chiqishga, soliqlarni soliq to’lovchilarga tushuntirish masalalariga qaratilgan.

Jamiyatda tovar-pul munosabatlarining tobora rivojlanib borishi natijasida soliqlarga doir nazariyalarda, soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi manba sifatida o’rganilishi bilan birga, soliqlar pulli munosabatlarni ifoda etuvchi moliyaviy munosabatlardan iborat ekanligini va bahoni shakllantirishda faol ishtirok etishini, talab va taklifga ta’sir etishini, soliqlar bo’yicha turli yengilliklar berish evaziga muayyan sohalarni rivojlantirish va ular faoliyatini rag’batlantirish mumkinligidan kelib chiqib, soliqlarga iqtisodiyotni tartibga soluvchi mexanizmlardan biri va ularning eng muhim vositasi sifatida e’tibor qaratib kelinmoqda. Soliqlardan iqtisodiyotdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqila boshlandi.

⁸ Тошмуродова Б. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. /Монография. – Тошкент.: “Янги аср авлоди”, 2002. - 6 б.

Soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga solishga doir nazariyalarning ilk ko'rinishi Keynes nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariya davlat ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashi, ular mahsulotlari realizatsiyasi manbalarini ta'minlash maqsadida samarali talab, qo'shimcha iste'mol yaratishi, buning uchun davlat tegishli soliq tizimi orqali investitsiya jarayonini kuchaytirishi lozimligi ta'kidlanadi.

Demak, soliqlarga doir fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular asosan davlat xazinasini to'ldiruvchi vosita sifatida qaralgan va iqtisodiy fikrlar shakllanishi va rivojlanishida ularning fiskal jihatidan kelib chiqqan holda baho berilgan, fikr bildirilgan. Lekin, jamiyat iqtisodiy jarayonidagi doimiy o'zgarishlar ko'plab muammolarni keltirib chiqardi, o'z navbatida, ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangidan yangi nazariyalar paydo bo'la boshladi. Davlatning iqtisodiyotga aralashishini, uni tartibga solishi lozimligini asoslagan keynschilik nazariyasi va uning asoschisi J.M.Keyns o'z navbatida soliqlarni asosiy tartibga soluvchi vosita deb qaraydi va soliqlarning fiskal ahamiyati bilan birga, ularning tartibga soluvchi ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratgan.

Keyns nazariyasida soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartibga solishga e'tibor qaratilib, soliqlar iqtisodiyotni boshqarishning muhim quroli, uni rivojlanishini ta'minlashning tarkibiy qismlaridan biri sifatida baho berilgan. Keynes o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936-yil) nomli ilmiy asarida bayon qilgan fikriga ko'ra iqtisodiy o'sish faqat to'liq bandlik sharoitida pul jamg'armasiga bog'liq bo'ladi. Ammo, to'liq bandlikka erishish mumkin emas. Bunday sharoitda katta jamg'armalar iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, jamg'armalarni ishlab chiqarishga qo'yilmasligi passiv daromad manbai hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiyotdagi salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun ortiqcha jamg'armalar soliqlar yordamida undirib olinishi kerakligi qayd etilgan.

Keng ma'noda keynschilik nazariyasi iqtisodiyotni makroiqtisodiy darajada tahliliga asoslangan. Bu nazariya «samarali talab»ni yaratish, ya'ni yaratilgan mahsulotning butunlay sotilishiga davlatning tartiblashgan siyosati bilan aralashsa samarali bo'lishini isbotlab berdi. U investitsiyalar oqib kelishiga erishishda


davlatning roli katta emasligini ko'rsatadi, ya'ni davlat faqatgina pul-kredit siyosati bilangina emas, balki o'zining budget siyosati, ya'ni davlat davr talabiga mos soliq tizimini yaratish, soliq stavkalarini tartibga solishga qaratishini ko'rsatadi.

Progressiv soliq stavkalari ishlab chiqaruvchilarni kapital qo'yilmalarga nisbatan bo'lgan riskni qabul qilishga rag'bat berishini e'tiborga olib, Keyns soliq stavkalari progressiv tarzda belgilanishi tarafdori bo'lgan. Ushbu nazariyaning asosiy shartlaridan biri to'liq bandlik sharoitida jamg'armalarni iqtisodiy o'sishga ta'sirini kattaligidir. Katta miqdordagi jamg'armalarni ishlatilmasligi iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi ta'kidlanadi, chunki u daromadlarning passiv manbai hisoblanadi. Ishlatilmayotgan ortiqcha jamg'armalarni olishini ko'zda tutib, davlatning aralashuvi lozim. Shuning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini barqarorlashtirishga erishiladi. Soliqdan tushadigan budget daromadlari faqatgina soliq stavkalariga bog'liq bo'lmasdan, balki progressiv shkalada soliqqa tortilayotgan daromadlarning ham o'zgarishiga bog'liqdir.

1980-yillar boshida amerika olimlari M.Bernson, G.Stayn va A.Laffer tomonidan ilgari surilgan taklif iqtisodiyoti nazariyasida soliqlarni iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirishdagi ahamiyati yuqori ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur nazariya yuqori darajada soliqqa tortish tadbirkorlik va investitsion faollikka salbiy ta'sir qilishini, bu oxir-oqibatda soliq to'lovlaridan tushumlar kamayishiga olib kelishini asoslab beradi. Shuning uchun, ular soliq stavkalarini pasaytirish va korporatsiyalarga imtiyozlar berishni taklif etgan. Taklif iqtisodiyoti nazariyasi tarafdorlarining fikriga ko'ra, soliq yukini pasayishi shiddatli iqtisodiy o'sishga olib keladi, yuqori soliq stavkalari tadbirkorlik tashabbusini kamaytiradi, investitsiya siyosatini, ya'ni ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirishni susayishiga olib keladi. Keng soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan kamroq soliqqa tortish stavkasini qo'llash, yetarli darajada kam bo'lgan soliq bazasiga nisbatan esa buning teskarisi, ya'ni alohida soliq turlarini yuqori stavkada qo'llash kerak. Ko'rinib turibdiki, yuqori va past soliq stavkalari xo'jalik faoliyatiga va tadbirkorlarni ish faolligiga har xil ta'sir ko'rsatadi.

Soliq stavkasining o'sishi fakatgina ma'lum darajaga etgunicha budjetga tushadigan daromadlarni o'sishiga olib keladi, keyin bu o'sish sekinlashadi va yana oshgan sari budjet daromadlari uning oshishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib, soliq stavkasi ma'lum darajaga etganida tadbirkorlik tashabbusi so'nadi, ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan rag'bat kamayadi, soliqqa tortiladigan daromadlar kamayadi, natijada soliq to'lovchilarning bir qismi iqtisodiyotni «qonuniy» sektoridan «yashirin» sektoriga o'tadi. Laffer nazariyasiga ko'ra iqtisodiyotning rivojlanishi soliq yukini oshishiga to'g'ri proporsionaldir, ya'ni soliqlar oshishi bilan yashirin iqtisodiyot hajmi ko'payadi, natijada olingan daromadlarning ko'p qismi deklaratsiyada ko'rsatilmaydi.

Tahlil natijasida A. Laffer quyidagilarning guvohi bo'lgan: davlat tomonidan soliq stavkasini oshirishning dastlabki bosqichida budjetga soliq tushumlari miqdori ortadi (1.1.1-chizma).



1.1.1-chizma. A.Laffer egri chizig'i.⁹

Lekin soliq stavkasi ma'lum chegara **M** dan ortgandan so'ng, budjetda soliq tushumlarining kamayishi kuzatiladi. Chunki, soliq stavkasining ortishi ishlab chiqarish rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilmaydi. Buning natijasida davlat budjetiga kelayotgan soliq tushumlari kamayadi. A.Laffer egri chizig'iga asosan, yuqori

⁹ Мамедов О.Ю. Современная экономика. – Ростов Д.: «Феникс». 1998

stavkadagi **N** nuqtasidagi soliq tushumlari miqdori bilan **L** past stavkasidagi soliq tushumlari miqdori teng. Lekin **N** nuqtadagi soliq stavkalari ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirmaydi va buning aksi **L** nuqtadagi soliq stavkalari ishlab chiqarishni kengaytirishga asos yaratadi va buning natijasida mamlakatda yaratilayotgan milliy daromad ortadi.

Nobel mukofoti sohibi Pol Samuelson ham soliqlarga iqtisodiyotni tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraydi. Shunday qilib, jahon iqtisodchilari tomonidan soliqlarning fiskal ahamiyati o'rganilishi bilan birgalikda, ularning nazariy jihatlari keng darajada o'rganilishi natijasida tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi jihatlari ham o'rganila boshlandi.

Davlat soliq imtiyozlarini qo'llash orqali iqtisodiyotning turli sohalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ayrim rentabelli va norentabelli sohalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammosi yuzaga keladi. Mamlakatimizda soliq tizimi va soliq siyosatini takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarda soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatiga urg'u berilmoqda. Jumladan, B.Toshmurodova¹⁰ o'z tadqiqotlarida iqtisodiyotni tartiblashda soliqlardan foydalanish nazariyasi va amaliyotini, ulardan respublikamiz iqtisodiy sharoitida foydalanish xususiyatlarini, soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartiblash usullari sifatida soliq imtiyozlaridan amalda foydalanish holati va ulardan tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalanishni takomillashtirish va soliq tizimini optimallashtirish kabi bir qator masalalarni tadqiq etgan. Ushbu amalga oshirilgan tadqiqotlarda respublikamiz soliq tizimiga iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi sifatida baho berilgan, tanqidiy jihatdan o'rganilgan bo'lsada, ko'proq makroiqtisodiy xususiyatga ega va respublika doirasidagi tahlillarga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari xususida turli xil fikrlar mavjud. Soliq imtiyozlarining mohiyatini to'laroq anglab yetish uchun, avvalo, ana shu turli xil fikrlarni keltirish maqsadga muvofiq.

¹⁰ Toshmurodova B. Соликлар воситасида иктисодиётни бошқариш механизми. /Монография. - Тошкент: "Янги асп авлоди", 2002. - 5 б.

Q. Yahyoyev ta'kidlashicha, "Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir".¹¹ Shuningdek, ushbu iqtisodchining fikricha, soliq imtiyozi degan termin o'rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi.

Sh. Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)".¹²

T. Malikov esa soliq imtiyozlarini soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi deb tushuntiradi.

Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish, soliqqa tortish obyektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko'rinishlaridir (turlaridir). Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirishni, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta'minlashni, ijtimoiy, madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag'batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo'lgan imtiyozlarni berish, odatda, taqiqlanadi¹³.

¹¹ Яхёев Қ. Солиқ. - Т.: "Меҳнат", 1997. – 206.

¹² Гатаулин Ш. Солиқлар ва солиққа тортиш. - Т.: 1996. – 74б.

¹³ Маликов Т. Солиққа тортишнинг долзарб масалалари. - Т.: 2000. – 76б.

1.2. Mintaqalar iqtisodiyotini soliqlar vositasida rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalari.

Rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimlari ko'pgina umumiy xususiyatlari va belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Ularni biz shartli ravishda bir necha turlarga bo'lishimiz mumkin:

- Amerikacha model;
- Yaponcha model;
- Yevropa modeli;
- Noandozaviy model;

Bu modellarning umumiy belgilari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

- rivojlangan qonunchilik bazasining mavjudligi, vujudga keladigan munozaralar, vazifalar hamda turli xil holatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari;
- soliq organlari tashkil etilishining yuksak darajasi (texnika vositalari bilan ta'minlanganligi, yuqori ish haqi, zamonaviy aloqa vositalari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish darajasi);
- soliq idoralarining soliq to'lovchilari oldida ishonchiga va yuksak obro'ga ega ekanligi;
- vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralanib qo'yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlash holatining yo'qligi;
- hukumatning vakili bo'lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorining) katta ahamiyatga va obro'ga ega ekanligi;
- kadrlarni tahlil etish, o'rganish, oldidan belgilash, o'qitish, soliq to'lovchilar (jamoatchilik) bilan aloqalar bo'yicha institutlarning mavjudligi;
- soliqqa tortish tizimini tashkil qilish, rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti yuksak darajada o'zaro bog'liqligi, qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslanganligi hisoblanadi;
- soliq idoralarining, ayniqsa, axborot almashinish sohasida moliya organlari va bank tizimi bilan chambarchas bog'liqligidir;

Endi bulardan tashqari har bir modelning bir-biridan farq qiladigan alohida belgilari to'g'risida to'xtalamiz, birinchi bo'lib amerikacha modelni ko'rib

chiqamiz.

Amerikacha model quyidagi belgilari bilan klassifikatsiyalanadi:

- soliq tizimi bo'yicha soliq to'lovchilarining tushunishi uchun murakkabligi, shu sababdan mamlakatda 50 mingdan ortiq mustaqil holda xususiy soliq maslahatchilari ish olib borib, shu tizimga doir bo'lgan muammolarni yechishga harakat qilmoqda;
- mamlakatning soliq tizimi juda katta boshqaruv tizimi hamda ijrochilik apparatiga egaligi bilan alohida ajralib turadi;
- soliq organlari umumiy tuzilishini mamlakat miqyosida qat'iy markazlashtirishning yo'qligi, mamlakat soliq idoralarining 3 darajali, ya'ni federal, shtat va shahar darajalarining har bir vakilining to'liq qarashligi va mustaqilligi;
- naqd pul bilan ishlaydigan kichik biznesning (savdo rastalaridan savdo qiluvchilar, ko'chadagi savdo va xizmatlar va shularga o'xshagan faoliyat turlari) daromadlarini nazorat qilishning samarali usullari AQShda yo'lga qo'yilmagan;
- noqonuniy daromad manbalari (o'z daromadlarini yashiruvchilar va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlovchilar) to'g'risida ma'lumot beruvchi ko'ngilli axborotchilar tarmog'ining mavjudligi;

Federal soliqning asosiy xususiyati shundaki, federal budjet tarkibida to'g'ri soliqlarning ulushi katta. Aholidan olinadigan daromad solig'i federal budjetning asosiy qismi hisoblanadi.

Amerikada har bir jismoniy shaxs o'zining soliq maqomiga ega: er-xotinning birgalikda yoki alohida soliq deklaratsiyasini to'ldirishi oilaviy ahvolga qarab guruhlanadi va soliq to'lovchiga ma'lum imtiyozlar beriladi.

Daromadlarni hisoblash 3 bosqichdan iborat, ya'ni:

1. yalpi daromad (tushum)
2. hisoblangan daromad
3. soliqqa tortiladigan daromad, yalpi daromaddan ayrim chegirmalar va ajratmalar chegiriladi.

Amerikacha model bilan solishtirma tahlili. O'zbekiston Respublikasi soliq

tizimining AQSh soliq tizimi bilan o'xshash jihatlari mavjud. AQShda ham soliq imtiyoz va chegirmalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkalari ham O'zbekiston mamlakatiga o'xshash, ya'ni soliqning tabaqalashtirilgan stavkasi mavjudligi.

1.2.1-jadval

Amerika Qo'shma Shtatlarida jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalari¹⁴

	yolg'iz (uylanmagan yoki oilali bo'lmaganlar)	oilali birgalikda (oilaviy daromadidan)	oilali yakka holda (alohida daromadlari bo'yicha)	oila boshlig'i (boshqa daromad oluvchilar oilada bo'lmaganda)	Soliq stav- kasi
2016-yil					
Daromadlar miqdori (AQSh dollarida)	0 - 9,275	0 - 18,550	0 - 9,275	0 - 13,250	10%
	9,276 - 37,650	18,551 - 75,300	9,276 - 37,650	13,251 - 50,400	15%
	37,651 - 91,150	75,301 - 151,900	37,651 - 75,950	50,401 - 130,150	25%
	91,151 - 190,150	151,901 - 231,450	75,951 - 115,725	130,151 - 210,800	28%
	190,151 - 413,350	231,451 - 413,350	115,726 - 206,675	210,801 - 413,350	33%
	413,351 - 415,050	413,351 - 466,950	206,676 - 233,475	413,351 - 441,000	35%
	415,051 va undan yuqori	466,951 va undan yuqori	233,476 va undan yuqori	441,001 va undan yuqori	39.6%

AQShda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, jismoniy shaxslarning daromad solig'i ularning oilaviy ahvoriga qarab tabaqalashtirilgan, hamda soliq solish bazasiga nisbatan 7 pog'anali foiz stavka (10, 15, 25, 28, 33, 35 va 39.6) qo'llaniladi.

1.2.2-jadval

AQShda asosiy soliq va majburiy to'lovlarning stavkalari¹⁵

Soliq va majburiy to'lovlar	Amaldagi soliq stavkasi	Stavka joriy etilgan davr	O'tgan yilgi soliq stavksi	Soliq stavkasining o'zgarish intervali	
Yuridik shaxslarning daromad solig'i	39 %	Dek/15	39,1%	39:39.3	
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	39.6 %	Dek/15	39,6%	35:39.6	
QQS	0 %	Dek/15	0%	0:00	
Ijtimoiy jang'arma	21.3 %	Dek/15	21,3%	16.75:21.55	
1) Yagona ijtimoiy to'lov	13.65 %	Dek/15	13,65%	10.1:13.9	
2) Fuqarolarning pensiya jang'armasiga to'lovlari	7.65 %	Dek/15	7,65%	5.65:7.65	

¹⁴ <http://www.bankrate.com/finance/taxes/tax-brackets.aspx>

¹⁵ www.tradingeconomics.com

AQShda yuridik shaxslarning daromad solig'i stavkasi 39 foizni tashkil etadi va bu bilan yuridik shaxslarning daromad solig'i eng yuqori bo'lgan dunyo mamlakatlari qatorida 4-o'rinni egallagan. Ijtimoiy jamg'armasining umumiy stavkasi 21,3 foizdan iborat bo'lib, uning 13,65 foizi yagona ijtimoiy to'lov va 7,65 foizi fuqarolarning pensiya jamg'armasiga to'lovlar ko'rinishida taqsimlangan. Mazkur raqamlar shuni anglatadi-ki, AQShning ijtimoiy jamg'armalar uchun belgilangan foiz stavkasi bizning mamlakatimizdagi ijtimoiy jamg'armalari foiz stavkasiga yaqin. E'tiborlisi, Amerika Qo'shma Shtatlarida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi nol foiz, bizda esa bu 20 foizni tashkil qilib, mintaqamiz budjetida ham, davlat budjetida ham salmoqli ulushni egallaydi.

Jahon soliq tizimining Yaponcha modeli quyidagi asosiy belgilari bilan xarakterlanadi:

- moliya, soliq, bank, sug'urta, bojxona xizmatlari va shu kabi davlat budjetini sarmoyaga to'ldiradigan tizimlar Yaponiya Moliya Vazirligi nazorati ostida hisoblanadi;

- Yaponiyada juda yuksak darajada vatanparvarlik ruhi, mamlakatga, davlat boshqaruv organlariga, vazirliklarga, mehnat bo'limi bitimini imzolagan kompaniyaga, firmaga, muassasaga sodiqlik hissi mavjudligi va natijada kadrlar qo'nimsizligining yo'qligi, shu jumladan soliq organlari tizimida ham kuzatilmaydi.

- quyidan to yuqorigacha bo'lgan boshqaruv apparati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda subordinatsiya tamoyiliga qat'iy rioya qilinishidir. O'lis istiqbol uchun oldindan belgilangan ko'rsatkichlarning tuzilishi. Masalan, borib-borib soliq to'lovchilar va budjetdan nafaqa oluvchilar sonining oshib ketish siklini yaponlar hisoblab chiqqan bo'lib, buning natijasida nafaqaxo'rlar sonining oshib ketishi va soliq to'lovchilar sonining kamayib ketishini aniqlangan.

Yaponiyada soliqlar davlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Davlat soliqlarining ichida to'g'ri soliqlarning salmog'i yuqoridir.

To'g'ri soliqlarga: jismoniy shaxslar daromadiga soliq, korporatsiya daromadiga soliq, merosga soliq va yer soliqlari kiradi.

Davlat soliqlarining ichida egri soliqlar ham mavjud, ya'ni iste'mol solig'i (QQS), spirtli ichimliklarga soliq, tamaki mahsulotlariga soliq, yoqilg'i mahsulotlariga soliq, bojxona bojlari, avtomobil quvvatiga soliqlardir.

Mahalliy soliqlar quyidagilardan iborat:

1. Prefekturalar (shaharlar) solig'i;
2. Munitsipal (shahar tipidagi hududlar) soliqlar.

Yaponiya soliq tizimini 4 guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- daromaddan olinadigan soliq;
- mol-mulkdan olinadigan soliq;
- iste'mol solig'i;
- maxsus mahsulotlarga belgilangan soliqlar;

Ularni biz umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'lamiz. Yaponiyada aholi daromad solig'ining hisoblanishiga ko'ra 10 ta guruhga bo'linadi:

1. Turli xil foizlardan olinadigan foyda;
2. Dividentlardan olinadigan foyda;
3. Asosiy fondlarning ijara haqi;
4. Biznes daromad;
5. Ish bilan band bo'lganlarning daromadlari;
6. Nafaqa yoshdagilarining daromadlari;
7. O'rmon mahsulotlarini sotishdan olingan daromad;
8. Kapital tushumlar;
9. Favqulodda daromadlar;
10. Turli-tuman daromadlar.

Iste'mol solig'i guruhiga litsenziya va registratsiya solig'i, gerb yig'imi, irrigatsiya yerlarini yaxshilash uchun soliq, elektroenergiya manbalarini rivojlantirish uchun soliq, mehmonxonalarda ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq, restoranlarda ovqatlanish uchun soliq.

Yapon modeli bilan solishtirma tahlil.

Budjetga kelib tushish bo'yicha:

- O'zbekistonda soliqlar ikkita budjetga kelib tushadi: umumdavlat budjeti va mahalliy budjet;

- Yaponiyada ham ikki xil budjet mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: davlat budjeti va mahalliy budjet;

Budjetlar daromadlari shakllanishida soliqlar va soliqsiz to'lovlarning hissasi bo'yicha:

- O'zbekistonda davlat budjeti shakllanishida:

1. Soliqlar hissasi 90% ni tashkil etadi. (2015-yil Davlart budjet ijrosi ma'lumoti, maqsadli jamg'armalarsiz)

2. Soliqsiz to'lovlar hissasi 10% dir.

- Yaponiyada davlat va mahalliy budjetlarning daromad qismi quyidagicha:

1. Soliqlar hisobiga 84%.

2. Soliqsiz to'lovlar hissasi hisobiga 16%, mahalliy budjetlarda esa 25% foizgacha soliqsiz to'lovlar hisobiga qoplanadi.

Soliq turlarining soni bo'yicha:

- O'zbekiston soliq tizimida xozirgi kunda 8 ta umumdavlat soliqlari va 6 ta mahalliy soliq turlari mavjud.

- Yaponiyada esa 25 ta davlat soliqlari va 30 ta mahalliy soliqlar mavjud.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha:

Yaponiyada ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi progressiv xarakterga ega bo'lib, soliq stavkasi 7 xildir: 5%, 10%, 20%, 23%, 33%, 40% va 45% soliq stavkalari. Yaponiyada shaxslarning daromadini soliqqa tortishda oilaviy ahvolni ham hisobga oluvchi soliqqa tortilmaydigan minimum qo'llaniladi, Bunday chora O'zbekistonda ham 2015-yildan boshlab qo'llanila boshlandi. Bundan tashqari Yaponiyada ko'p oilalilar qo'shimcha soliq imtiyozlariga ega bo'ladilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i bo'yicha:

- O'zbekistonda hozirgi kunda umumbelgilangan soliq to'lovchi yuridik shaxslar o'z daromadlaridan 7,5 % ni davlat budjetga o'tkazadilar.

- Yaponiya korxonalar va tashkilotlar o'z daromadlaridan 33,06 foiz davlat daromad solig'i to'lab, bundan 5 foizi yoki daromadning 1,67 foizi prefektura, 12,3 foizi yoki daromaddan 4,12 foizi shahar (tuman) daromad solig'idir.

Umuman olganda ikki davlatning soliq tizimini barqarorligini solishtiradigan bo'lsak, Yaponiya davlati soliq tizimi nafaqat O'zbekistonga nisbatan rivojlangan balki, chet mamlakatlar soliq tizimlari ichida ham eng barqaror soliq tizimi desak bo'ladi.

Yevropacha model quyidagi belgilari bilan boshqa modellardan ajralib turadi:

- Yevropadagi mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy birlashishga doimiy intilish mavjud. Shuning uchun ularning iqtisodiyotdagi ayrim boshqaruv tizimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular bir-biriga juda yaqin. Shu boisdan ularning soliq tizimi jahon amaliyotida "Yevropacha model" deb yuritiladi;

- soliq faoliyatining unitar shakllari mavjud bo'lib, bularga yagona andozalar, yondashuvlar, talqin qilishlar, soliq deklaratsiyalarining shakllari, ish printsiplarini kiritish mumkin. Noandozaviy yoki moslashgan modellar odatda ayrim kichik hududli yoki orollarda joylashgan davlatlarda, erkin iqtisodiy zonaga ega (offshor zonali) davlatlarda va qator boshqa davlatlar (masalan, Kipr, Lyuksemburg, Maldiv orollari) soliq tizimlarida mana shu model amal qilishi mumkin. Ular uchun turli soliq imtiyozlari va yengilliklari, "soliq ta'tillari" deb nomlanadigan hududlar shular jumlasidandir.

Buyuk Britaniya mamlakati soliq tizimi.

Buyuk Britaniya soliq tizimi markazlashgan va mahalliy soliqlardan iborat. Markazlashgan soliqlarga: daromad solig'i, korporatsiyalar faoliyatidan olinadigan soliq, ish haqiga daromad solig'i, QQS, aktsiz, bojxona bojlari va boshqalar kiradi. Mahalliy soliqlarga: mol-mulk solig'i, biznesdan olinadigan soliq, qimmatli qog'ozlar operatsiyalaridan olinadigan daromad solig'i, ko'chmas mulkdan olinadigan soliq va boshqalar kiradi.

Shuningdek, soliq tizimini soliq to'lovchilarning zimmasiga taqsimlanishi bo'yicha to'g'ri soliqlar va egri soliqlarga ajratilgan. Bularning ichida to'g'ri

solliqlar yuqori salmoqqa ega. Egri solliqlar ichida eng yuqorisi QQS, 2-o'rinda aktsiz solig'i hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada budjet daromadlari tarkibida to'g'ri solliqlar yuqori salmoqqa ega, asosiy ulushi daromad solig'iga to'g'ri keladi. O'zbekistonda esa budjet daromadlari tarkibida egri solliqlarning ulushi yuqori. Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslarning daromadini soliqqa tortish mexanizmi foiz stavkalarining yuqoriligini inobatga olmaganda, mamlakatimizda fuqoralarning daromad solig'iga qisman o'xshash.

1.2.3-jadval

Buyuk Britaniyada jismoniy shaxslarni daromad solig'i stavkasi¹⁶.

Soliq stavkasi	Soliq solinadigan daromad miqdori taqsimlanishi
20%	£0 dan £31,785 gacha Ushbu stavkada daromadning £11,000 dan yuqori qismi uchun to'lanadi
40%	£31,786 dan £150,000 gacha Ushbu stavkada daromadning £42,785 dan yuqori qismi uchun to'lanadi
45%	£150,000 dan yuqori

Ya'ni, mamlakatimizda kam daromad oluvchilarni qo'llab quvvatlash maqsadida, ular daromadining 1-shkalasiga eng kam ish haqqining bir baravariga nol foizli stavkada hisoblanadi. Buyuk Britaniya ham jismoniy shaxslar daromadining dastlabki 11000 £ ga soliqqa tortilmaydi.

Masalan, sizning daromadingiz 35,000£ ni tashkil qilsa, undan standard shaxsiy imtiyoz chegirilib soliq hisoblanadi, ya'ni to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdori $(35000-11000) \cdot 0.2 = 4800£$ ga teng bo'ladi.

1.2.4 – jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Buyuk Britaniya va mamlakatimiz solliqlarining stavkalarini solishtiradigan bo'lsak, o'xshash jihati Buyuk Britaniyada ham, bizda ham QQS stavkasi 20 foizdan iborat.

¹⁶ <https://www.gov.uk/income-tax-rates/current-rates-and-allowances>

Buyuk Britaniyada asosiy soliq va majburiy to'lovlarning stavkalari¹⁷

Soliq va majburiy to'lovlar	Amaldagi soliq stavkasi	Stavka joriy etilgan davr	O'tgan yilgi soliq stavksi	Soliq stavkasining o'zgarish intervali	
Yuridik shaxslarning daromad solig'i	20 %	Dek/15	21%	20:52	
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	45 %	Dek/14	45%	40:50	
QQS	20 %	Dek/15	20%	8:20	
Ijtimoiy jamg'arma	25.8 %	Dek/15	25.8%	9:25.8	
1) Yagona ijtimoiy to'lov	13.8 %	Dek/15	13.8%	10.2:13.8	
2) Fuqarolarning pensiya jamg'armasiga to'lovlari	12 %	Dek/15	12%	7.75:12	

Shuningdek yagona ijtimoiy to'lov stavkasi ham mamlakatimizdagiga yaqin, asosiy farqli tomonlaridan bir shuki, ushbu davlatda yuridik shaxslarning daromad solig'i stavkasi 20 foizni tashkil qilib, mamlakatimizdagiga nisbatan 12,5 foizga ko'pdir.

Germaniya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Germaniya soliq tizimi federal, yer va mahalliy soliqlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Budjet xo'jaligini mustaqil yuritish tamoyillari umumdavlat va hududlarning manfaatlarni ko'zlagan holda olib borildi.

Hozirgi kun Germaniya Respublikasi soliq tizimida 40 ga yaqin soliq mavjud:

- *Federal soliqlar*: spirtli mahsulotlarga soliq, boj yig'implari, kapitalning harakatiga soliq, sug'urta solig'i, veksel solig'i, iste'mol mahsulotlariga soliqlardan iborat.

- *Qo'shma soliq (federal va hudud)lar*: ish haqidan olinadigan daromad solig'i, kapital va korporatsiya daromadiga soliq, QQS, hunarmandchilik soliqlaridan iborat.

- *Hududlar soliqlari*: yer maydonini sotib olishga soliq, transport vositalariga soliq, pivoga soliq, lotereya o'yinlariga soliq, yong'in havfsizligini ta'minlash solig'i, bilyard o'yinlaridan olinadigan daromad soliqlaridan iborat.

¹⁷ www.tradingeconomics.com

Munitsipal soliqlar: yer solig'i, mahalliy iste'mol solig'i, it egalaridan olinadigan soliq, kosibchilik soliqlaridan iborat.

Germaniyada mahalliy soliqlarning stavkalari mahalliy boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi. Germaniyada yer solig'idan quyidagilar ozod etiladi:

- davlat tashkilotlarining yer maydonlari;
- cherkovlar;
- bolalar bog'chalari;
- kasalxonalar;
- internatlar;
- ilm-fan yo'nalishda foydalanishda bo'lgan yer maydonlari.

Yangi qurilgan uy-joylar uchun yer solig'idan bir yil davomida uy egalari ozod etiladi. Har 3 -yilda yer solig'i summasi belgilab beriladi va har kvartalda to'lanishi lozim.

Germaniya mamlakati soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimi bilan solishtiradigan bo'lsak bir qancha o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud. Ularni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin:

Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha rivojlangandir va soliq turlari ham O'zbekistondagidan bir muncha ko'p. Bizning soliq tizimimizdan farqli o'laroq, Germaniyada budjetlarning asosini to'g'ri soliqlar tashkil etadi. Germaniyada qo'shma soliqlar, ya'ni bir vaqtning o'zida bir necha budjetga tushadigan soliqlar mavjud. O'zbekistonda esa yo'q, har bir soliq turi to'liqligicha bitta budjetga tushadi. Germaniyada O'zbekistonda bo'lmagan, o'ziga xos hususiyatga ega bo'lgan soliqlar: cherkov solig'i, it solig'i va boshqalar mavjuddir. Shu bilan birga O'zbekistonda mavjud mol-mulk solig'i Germaniyada yo'q.

Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha murakkab tuzilishga ega. Buni yer solig'i, jismoniy shaxslar daromadiga soliq misolida ko'rishimiz mumkin. Yana bir farqli jihati, Germaniyada jismoniy shaxslar daromadiga soliq hisoblanganda oilaviy sharoiti hisobga olinadi. Ya'ni, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida soliqlarni sinflarga bo'lingan, soliq

to'lovchilarning turmush darajasi, oilaviy ahvoli, bolalar sonini hisobga olgan holda amal qiladi. Germaniya davlatining asosiy soliq stavkalari quyidagicha: korxonalarining daromad solig'i 29,65 foizni va ijtimoiy jamg'arma majburiy to'lovi stavkasi 39,56 foizni, hamda QQS esa O'zbekistondagidan 1 foizga past tashkil etgan.

1.2.5-jadval

Germaniyada asosiy soliq va majburiy to'lovlarning stavkalari¹⁸

Soliq va majburiy to'lovlar	Amaldagi soliq stavkasi	Stavka joriy etilgan davr	O'tgan yilgi soliq stavksi	Soliq stavkasining o'zgarish intervali
Yuridik shaxslarning daromad solig'i	29.65 %	Dek/15	29.6	29.4:56.8
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	47.5 %	Dek/14	47.5	44.3:57
QQS	19 %	Dek/15	19	16:19
Ijtimoiy jamg'arma	39.56 %	Dek/15	39.46	33.35:42.53
1) Yagona ijtimoiy to'lov	19.33 %	Dek/15	19.28	16.7:21
2) Fuqarolarning pensiya jamg'armasiga to'lovlari	20.23 %	Dek/15	20.18	16.65:21.63

Frantsiya soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Frantsiya soliq tizimi bizning soliq tizimimizga yaqindir. Ikkala mamlakatda ham budjetning asosiy qismini QQS tashkil etadi. Budjet tuzilishi markaziy va mahalliy budjetlardan iborat. Frantsiya soliq tizimi bilan O'zbekiston soliq tizimida soliqlarni undirish xususiyati ham o'xshashdir. Mamlakatimizdagi kabi Frantsiyada ham davlat budjeti tarkibida egri soliqlarning salmog'i katta. Ammo ularda soliq stavkalari juda yuqori (1.2.6-jadval), shuningdek korxonalarining mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov uchun ajratmasi ham yuqori stavkada, ya'ni 40,63 foizni tashkil etadi, fuqarolarning pensiya jamg'armasiga to'lovlari esa daromadlarining 14,2 foizini qamrab oladi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi esa mamlakatimizdagi kabi 20 foizdan iborat. Tadbirkorlar daromadlariga soliq hajmi soliq bazasiga nisbatan 33,3 foizni tashkil etib, O'zbekiston

¹⁸ www.tradingeconomics.com

Respublikasi yuridik shaxslarning daromad solig'idan deyarli 4,5 baravarga ortiq.

1.2.6-jadval

Fransiyada asosiy soliq va majburiy to'lovlarning stavkalari¹⁹

Soliq va majburiy to'lovlar	Amaldagi soliq stavkasi	Stavka joriy etilgan davr	O'tgan yilgi soliq stavksi	Soliq stavkasining o'zgarish intervali	
Yuridik shaxslarning daromad solig'i	33.3 %	Dek/15	33.3%	33.3:50	
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	50.3 %	Dek/15	50.3%	45.8:59.6	
QQS	20 %	Dek/15	20%	19.6:20	
Ijtimoiy jang'arma	54.83 %	Dek/15	55.53%	51.22:55.91	
1) Yagona ijtimoiy to'lov	40.63 %	Dek/15	41.86%	37.9:41.86	
2) Fuqarolarning pensiya jang'armasiga to'lovlari	14.2 %	Dek/15	14.05 %	12.22:17.97	

Fransiya soliq tizimida QQS eng asosiy soliq turlaridan biri hisoblanadi. Aktsiz soliqining ba'zilar davlat budjetiga, ba'zilar esa mahalliy budjetga borib tushadi. Fransiyada ham soliq turlari bo'yicha imtiyozlar va chegirmalar mavjud.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar 4 ta asosiy guruhga bo'linadi:

- qurilish qilingan yerlarga solinadigan soliq yoki yig'im;
- qurilish qilinmaydigan yerlarga solinadigan soliq yoki yig'im;
- turar joylarga soliq;
- kasb-hunarga soliq;

Rivojlanayotgan davlatlarda soliqqa tortish darajasi yuqori bo'lmaydi, rag'batlantiruvchi imtiyozlar tarkibi, shuningdek soliqqa tortilmaydigan minimumlar ancha keng bo'ladi. Rivojlangan davlatlarda esa aksincha umumiy soliq yuki past bo'lmaydi va bu guruh imtiyozlari ancha kam, ijtimoiy soha imtiyozlari esa salmoqli darajada ko'pdir. Bu albatta mamlakatning iqtisodiy rivojlanish holatiga va iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq.

¹⁹ www.tradingeconomics.com

1.3. Mintaqalarni soliq imtiyozlari vositasida rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozlar berish ko'rsatib o'tilgan. Soliq kodeksining 30-moddasiga asosan, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi.

Mintaqalar iqtisodiyotini baravar va barqaror rivojlantirish, real yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atini, aholi bandligini oshirish respublikamizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, soliq imtiyozlaridan foydalanish mintaqa ishlab chiqarishiga, aholi daromadlariga, aholi bandligiga ijobiy ta'sir etadi. Chunki, soliq rag'batlaridan foydalanmay, soliq qonunchiligini takomillashtirmasdan mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish, bu huddi bir qo'l bilan qarsak chalgandek gap.

Soliqlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim quroli sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy xulq-atvoriga davlat ta'sirini ifodalaydilar. Ammo bunda soliq imtiyozlari asosiy vosita sifatida qaralishi keng nazarda tutilgan. Soliq imtiyozlarini belgilash asosida ishlab chiqarishni rag'batlantirish, chet el investitsiyalari kirib kelishini ta'minlash, ijtimoiy himoyalashni tashkil etish, turli sohalarni rivojlanishiga aktiv ta'sir etish muammosi yotadi. Shu o'rinda soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari xalqaro soliq munosabatlariga mos kelishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning faol ishtirok etishida moslashuvchan bo'lishi lozim.

Soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmidagi eng murakkab jarayon bu soliq imtiyozlarini adolatli tarzda belgilash mezonlari hisoblanadi. Bu mezonlar quyidagilardan iborat²⁰:

²⁰ A.Vahobov.Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: "Sharq", 2009. – 42 b

- *Sohani rivojlantirish ustuvorligiga qarab;*
- *Joylashgan hududiga qarab;*
- *Soliq to'lovchilarning ijtimoiy holatiga qarab;*
- *Mahsulotlari eksporti darajasiga qarab;*
- *Xalqaro iqtisodiy aloqalar darajasiga qarab.*

Ammo qayd etish joizki, soliq imtiyozlarini belgilash jahon amaliyotida har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va shu jihatdan u turli davlatlarda turlicha bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarini belgilash muayyan mezonlar asosida amalga oshirilgan. Soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarning ijtimoiy holatiga, respublikada qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, joylashgan hududiga, soliq to'lovchilarning importning o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va mahsulotni eksport qilish darajasiga hamda davlatlar o'rtasidagi halqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanib belgilangandir. Soliq imtiyozlarining mezonlarini to'g'ri, obyektiv aniqlash soliqlarning adolatlilik tamoyilini ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo'lib yuzaga chiqadi. Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag'batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Shularga muvofiq ravishda, korxonalar, birlashma va tashkilotlarga soliqlardan yengilliklar berilishi ularga o'z korxonalarini kengaytirish, ko'proq xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish, xorijiy ishbiarmonlar bilan birlashib qo'shma korxonalar tuzish, ijtimoiy va madaniyat shoxobchalariga bozor qiyinchiliklari davrida yordam berish va boshqa mehr-muruvvat jamg'armalariga yordamlashish imkonini yaratadi. Soliqlar kelib chiqishiga ko'ra davlat bilan bog'liqligi, ular davlatniki ekanligini aytib o'tgan edik.

Demak, soliqlar davlatniki ekan, ularni tashkil etish ya'ni soliqqa tortish tamoyillarini ham davlat ishlab chiqadi. Soliqlarni tashkil qilishda shu tamoyillarga qattiq rioya qilish soliq to'lovchilarni ko'p ranjitmasdan ulardan soliqlarni undirish imkonini beradi. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar amaldagi soliq qonunchiligiga asosan mavjud soliq solish obyekti bo'yicha soliqlar to'lashdan to'liq yoki qisman ozod etish hamda soliq solish bo'yicha ayrim yumshatishlarning qo'llanilishini o'z ichiga oladi.

Soliq imtiyozlarini turli xil asoslar bo'yicha guruhlash mumkin. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda. Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash bo'yicha umumiy o'xshashliklar mavjudligiga guvoh bo'lish mumkin. Ya'ni, barcha qonun hujjatlarida soliq turlari bo'yicha imtiyozlar asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'ldi:

- soliqdan batamom ozod etish;
- soliqdan vaqtincha yoki qisman ozod etish;
- soliq bazasini kamaytirish tarzida berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida, shuningdek mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari doirasida belgilangan soliq imtiyozlarini quyidagicha guruhlash mumkin.

Soliq bo'yicha imtiyozlar har bir soliqning muhim elementi hisoblanadi va u o'ziga xos tasnifga ega. Soliq imtiyozlari bo'yicha tasnif mavjud bo'lib, soliq imtiyozlarini soliq subyekti, soliq obyekti, muddatlari nuqtayi nazaridan bir necha guruhlarga (turlarga) bo'lish mumkin:

1. Hozirgi kunda soliqqa tortish obyekti bo'yicha, imtiyozlarni uch xil guruhga bo'lish mumkin: **chiqarib tashlash, chegirma, soliq krediti.**²¹ **(1.3.1-chizma)**

²¹ Умаров О.К. Солиқ ва солиққа тортиш: Ўқув қўлланмаси.- Ф.:Фарғона Давлат Университети, 2007. – 10 б

SOLIQ IMTIYOZLARI		
1. Chiqarib tashlash	2. Soliq krediti	3. Chegirma
	2.1. Soliq stavkalarini pasaytirish	
	2.2. Soliq summasini qisqartirish	
	2.3. Soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash	
	2.4. Avval to'langan soliqni qaytarish	
	2.5. Avval to'langan soliqni hisobga olish	
	2.6. Investitsiya soliq krediti	

1.3.1-chizma. Soliq imtiyozlari²²

Chiqarib tashlash – masalan, 1941-1945-yillar urushi qatnashchilari mol-mulk va yer soliqlardan ozod etilgan.

Chegirma – masalan, ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalari, madaniy muassasalar, xalq ta'limi, soqliqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash, jismoniy tarbiya va sport kabilarga sarflangan summaga soliq bazasi kamayadi.

Soliq krediti usulida budjetga to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasi (soliq stavkasi) kamaytiriladi. Soliq krediti doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Soliq kreditlari berilish shakliga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) soliq stavkasini pasaytirish;
 - 2) budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi (oklad summasi) ni qisqartirish;
 - 3) soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash;
 - 4) avval to'langan soliqlarni yoki ma'lum qismini qaytarish;
- O'zbekistonda bunday imtiyoz odatda qo'llanilmaydi;
- 5) investitsiyaviy soliq krediti – soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi. Agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdagi

²² Xusainov R.R., Isxaqov A.K., Urmanova D.T., Djurayev X.Z. - T.: ToshDTU, "Voris-nashriyot", 2014. - 15b

asoslar bo'lgan taqdirda soliq to'lovlarini ma'lum bir vaqt ichida bosqichma-bosqich to'lash imkoniyati beriladi.

2. Soliq bo'yicha imtiyozlarning soliq subyektlarini alohida toifalari bo'yicha guruhi faqatgina ba'zi soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llaniladi va unda soliq stavkasini pasaytirilishi hamda soliq to'lash muddatini kechiktirilishi shuningdek soliq bo'yicha ta'tillar berish usullaridan foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlarini yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan soliq imtiyozlariga ajratish mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi hukumat qarorlari va Soliq Kodeksida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun soliq imtiyozlari belgilangan.

3. Soliq imtiyozlari buxgalteriya hisobida ko'rsatilishiga qarab doimiy, vaqtinchalik, maqsadli imtiyozlarga ajratiladi (1.3.2-chizma).


Doimiy imtiyozlar (maqsadsiz)	SOLIQ IMTIYOZLARI BUXGALTERIYA HISOBIDA KO'RSATILISHIGA QARAB TOIFALANISHI	Maqsadli imtiyozlar (imtiyozlar doimiy ravishda hamda vaqtinchalik ravishda berilishi mumkin)
Vaqtinchalik imtiyozlar (maqsadsiz)		

1.3.2-chizma. Buxgalteriya hisobida soliq imtiyozlarining ko'rsatilishi²³

Hozirga qadar qabul qilingan barcha soliqqa oid qonun hujjatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning barchasiga soliq imtiyozlarini belgilash bo'yicha umumiy o'xshashliklar mavjudligiga guvoh bo'lish mumkin.

²³ Xusainov R.R., Isxaqov A.K., Urmanova D.T., Djurayev X.Z. - T.: ToshDTU, "Vorish-nashriyot", 2014. 19b

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini huquqiy bazasi takomillashib bormoqda. Soliq imtiyozlarining huquqiy bazasini yaratuvchi asosiy organ Oliy Majlis hisoblanadi, hamda soliq imtiyozlari Prezident qarorlari va farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari asosida ham beriladi, shuningdek Mahalliy hokimiyat organlari o'z vakolatlari doirasida mahalliy soliq imtiyozlarini berishlari mumkin (1.3.3-chizma).



1.3.3-chizma. Soliq imtiyozlarini beruvchi organlar²⁴

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida har bir soliq turi bo'yicha biz yuqorida qayd etgan imtiyozlarning zarur shakllarini qo'llanishi qonunan belgilab qo'yilgan. Soliq bo'yicha imtiyozlar har yili mamlakatimiz hokimiyatini yuqori organi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yangi kalendar yili uchun davlat budjeti qabul qilinayotgan va tasdiqlanayotganda qayta ko'rib chiqiladi hamda u qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli.

Shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar bo'shagan mablag'larni muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirib olinadi.

²⁴ Muallif ishlanmasi

Soliq kodeksining 30-moddasiga binoan mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlarni berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida aytilgan soliqlar bo'yicha imtiyozlar quyidagi hollarda beriladi, agar²⁵:

✓ tegishli hududning budjeti yuqori turuvchi budjetdan dotatsiya olmaganda va soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish tegishli budjetning dotatsiya olishiga sabab bo'lmaganda;

✓ tegishli hududning mahalliy budjeti xarajatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining alohida qarorlarida nazarda tutilgan tadbirlar moliyalashtirilishi to'liq ta'minlanganda;

✓ muayyan soliq bo'yicha imtiyozlar berish natijasida tegishli budjetga tushum tushmasligi mumkin bo'lgan daromadlar (yo'qotishlar) summasi boshqa manbalar bo'yicha qo'shimcha tushumlar hisobiga qoplanganda;

✓ mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlar berilgan obyektlar ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan yer uchastkalari maydoni doirasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganda;

✓ soliq to'lovchida budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lmaganda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim toifadagi yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar berish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan soliqlar bo'yicha imtiyozlar birinchi navbatda quyidagi toifadagi soliq to'lovchilarga beriladi:

²⁵ Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 2-oktyabrdagi 281-sonli qarori

a) ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni amalga oshirayotganlarga;

b) O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga yoki hududiy investitsiya dasturlariga kiritilganlarga;

v) hududning infratuzilmasini rivojlantirishda qatnashuvchilarga.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan soliq imtiyozlari soliqning bitta turi bo'yicha, shuningdek bir nechta turi bo'yicha bir yo'la berilishi mumkin. Soliq bo'yicha imtiyozlar dastlab 12 oygacha bo'lgan muddatga beriladi. Bunda tegishli hududiy moliya organlarining, davlat soliq xizmati organlarining, iqtisodiyot va adliya organlarining xulosasiga ko'ra soliqlar bo'yicha imtiyozlarning amal qilishi 12 oygacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin. Keyinchalik ushbu toifadagi soliq to'lovchilarga soliq bo'yicha imtiyoz kamida besh yil o'tgandan keyin berilishi mumkin.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning turlarini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq tadbirlarga yo'naltiriladi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi natijasida bo'shaydigan mablag'lardan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda, ushbu mablag'lar to'liq hajmda, belgilangan tartibda penya hisoblagan holda tegishli mahalliy budjetga undiriladi.

Shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar belgilaydilar, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy dasturini ishlab chiqadilar hamda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydilar.

1-bob bo'yicha xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday davlat uning xo'jalik yuritish tizimi qanday bo'lishdan qat'iy nazar davlat budjetini daromadlar bilan ta'minlashda asosiy vositalar — bu soliqlar hisoblanadi. Ammo joriy etilgan soliqlar sof fiskal shaklda o'rnatilishi mumkin emas. Chunki faqat budjet manfaati nuqtai nazaridan o'rnatilgan soliqlarni amal qilishi uzoq vaqtni o'z ichiga olmaydi. Shuning uchun muayyan darajada soliq imtiyozlaridan foydalanish taqozo etiladi. Jahon soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlardan biri – bu soliq imtiyozlaridir.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozlar berish ko'rsatib o'tilgan. Soliq kodeksining 30-moddasiga asosan, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi.

Minataqalar iqtisodiyotini baravar va barqaror rivojlantirish, real yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atini, aholi bandligini oshirish respublikamizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, soliq imtiyozlaridan foydalanish mintaqa ishlab chiqarishiga, aholi daromadlariga, aholi bandligiga ijobiy ta'sir etadi. Chunki, soliq rag'batlaridan foydalanmay, soliq qonunchiligini takomillashtirmasdan mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish, bu huddi bir qo'l bilan qarsak chalgandek gap.

Soliq imtiyozlari berilishi natijasida bo'shaydigan mablag'lardan oqilona foydalanilsa, ushbu imtiyozlar jamiyatga ko'p marotaba naf keltirish imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu maqsad yo'lida hozirgi kunda mamlakatimizda soliq imtiyozlarining aynan maqsadlilikini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

2-BOB. XORAZM VILOYATIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG’BATLANTIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI

2.1. Mintaqada soliq islohotlari va tadbirkorlik subyektlarini soliqlar orqali rag’batlantirishning mavjud mexanizmlari.

Respublikamiz rivojlanish yo’lida ijtimoiy hayotning barcha jarayonlarida juda ko’p islohotlarni boshidan kechirmoqda. Soliq tizimining rivojlanish jarayoni ham bundan mustasno emas. Mustaqillikning dastlabki yillaridan shu bugungacha olib borilgan soliq islohotlari asosan iqtisodiyotda soliq yukini umumiy tarzda kamaytirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka qulay muhitni yaratishga qaratib kelindi. Amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida soliq yukini budjet talofatlarisiz sezilarli darajada kamaytirishga erishildi.

Ma’lumki, mamlakatimizda yagona soliq tizimi amal qilib, alohida mintaqa uchun ishlab chiqilgan soliq siyosati mavjud emas. Shu bois, mamlakat doirasida ishlab chiqilgan soliq tizimi mintaqa soliq tizimi bilan mos hisoblanadi, hamda ushbu soliq tizimi mintaqalarda o’z amaliy tasdig’ini topadi. O’tgan davrlar mobaynida mamlakatimiz iqtisodiyotida soliq tizimiga bog’liq bo’lgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan,

- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-mayda qabul qilingan *“Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo’lidagi to’siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to’g’risida”* gi PF-4725-sonli Farmoni;
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda qabul qilingan *“O’zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to’g’risida”* gi PQ-2455-sonli qarori;
- O’zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi *“Tadbirkorlik faoliyati erkinliginining kafolatlari to’g’risida”* gi 328-sonli qonuni;
- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi *“Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat*

berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 4-apreldagi *“Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*” gi PF-4296-sonli farmoni;
- Prezidentimizning 2005-yil 5-oktyabrda *“Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*” gi N PF-3665-sonli farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2011-yil 7- noyabrda 2280-son bilan ro'yxatga olingan *“Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirish tartibi to'g'risidagi nizom”*.

Mintaqalarimizda bu kabi soliq islohotlar o'z amaliy tasdig'ini topib xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlariga ijobiy va samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Xorazm viloyatida tadbirkorlik subyektlarining soliq hisobotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi *“Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida*” gi Farmoni natijasida 100 foiz elektron shaklda internet tarmog'i orqali taqdim qilinmoqda, bu esa tadbirkorlarning vaqtini tejab, ortiqcha ovoragarchilikning oldini olmoqda. SHuningdek, tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha esa mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari faoliyati to'rt yilda bir marta, boshqa xo'jalik subyektlari faoliyati esa uch yilda bir marta rejali tartibda tekshiriladi va bunday tekshiruvlar faqat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi. Bu borada moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlarni amalga oshirish muddati 30 kalendar kunidan 10 kalendar kuniga qadar qisqartirildi. Shuni qayd etish kerakki, bu normalar xususiy bank va moliya institutlariga ham tegishlidir.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan yana biri bo'lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. Bu islohotning asosiy ildizlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida" gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazishdan boshlandi. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2005-yil 20 - iyuldagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni bilan 2005-yil 1-iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar ilgari to'lab kelayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'rniga 1 ta yagona soliq to'lovining joriy etilishi hisobiga ular zimmasidagi soliq yuki kamaytirilgan bo'lsa, 2007- yildan boshlab ularning safi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, xarid va ta'minot-sotish korxonalari, lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar hisobiga kengaytirildi. Soliq tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish sohasidagi islohotlar mamlakatimizda soliq sohasida keskin burilish yasadi desak also mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqotimiz davomida mavjud o'quv materillaridan ma'lum bo'ldiki, soliq tizimida o'sha davrlardagi bunday vaziyatlar quyidagi kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi:

- umumbelgilangan soliq to'lovchi kichik biznes subyektlarining oladigan daromadlari past bo'lgani uchun ular barcha umumbelgilangan soliqlarni bazo'r to'lashlari mumkin edi;

- shuningdek soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida bozorning kichik qatnashchilarining soliqlarni hisoblash, hisob yuritish va hisobotlar tuzish, hamda ularni soliq idoralari oldida himoya qilishga ketadigan solishtirma xarajatlarni minimallashtirishga imkonlari yo'q edi, chunki ularning yetarli miqdorda malakali xodimlarni ishlatishga imkoniyatlari yo'q edi.

- O'z navbatida soliq idoralari ham soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibda faoliyat yurituvchi ko'plab mayda soliq to'lovchilar ustidan soliq ma'murchilgini amalga oshirish bo'yicha ulkan xarajatlarga yo'l qo'ydilar.

Shuning uchun ham bunday kamchiliklarning oldini olish uchun kichik biznes subyektlariga mos keladigan soliqqa tortish tartibini ishlab chiqish obyektiv zaruratga aylanib qolgan edi.

Bu tartibda faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari quyidagi soliqlar va majburiy to'lovlar²⁶:

- yuridik shaxslar foyda solig'i (24 varaq);
- qo'shilgan qiymat solig'i (15 varaq);
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (3 varaq);
- mol-mulk solig'i (13 varaq);
- yer solig'i (8 varaq) va budjetdan tashqari:
- pensiya jamg'armasi (2 varaq);
- Respublika yo'l jamg'armasi (2 varaq);

- maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi (2 varaq)ga majburiy ajratmalar o'rniga faqat bitta yagona soliq to'lovi (11-varaq)ni to'laydilar, ya'ni soliq inspeksiyasiga topshiriladigan hisobotlarning umumiy miqdori 69 varaqdan 11 varaqgacha kamaydi va hisobotlarni soliq inspeksiyasiga topshirish muddatlari yiliga 12 martadan 4 martagacha kamaydi. Oqibatda «yagona soliq»ni hisoblash soddalashdi, osonlashdi va xato qilmaslik imkoniyati $8 \times (12 - 4) = 64$ martagacha oshdi. Shunday qilib, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi umumbelgilangan tartibga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

- umumdavlat va mahalliy soliqlarning bir qatori o'rniga faqat bitta «yagona soliq to'lovi» to'lanadigan bo'ldi;

- soliqlar bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish uchun mehnat sarfi keskin kamaydi;

²⁶ А.Муталов. Солиққа тортишнинг соддалаштирилган тартиби солиқ соҳасида инновацион йўналишдир. //«Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 1, сентябрь, 2011 йил, 3-б

-solih hisobotlarini topshirish bo'yicha solih to'lovchilar buxgalteriyasi va qabul qilish bo'yicha solih inspeksiyasi sarflaydigan vaqti keskin kamaydi, natijada soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarni kamaytirishga va solih to'lovchida buxgalteriya xodimlari soni va solih inspeksiyalarida xodimlar sonini qisqartirish imkoniyati paydo bo'ldi;

- solih yuki optimallasishi va shu kabi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l yaratilib, ularning faoliyatlari imkon qadar erkinlashtirilmoqda, ya'ni nazorat organlari tomonidan olib boriladigan tekshiruvlar soni sezilarli darajada kamaytirilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlarga berilayotgan solih imtiyozlari hamda banklarning imtiyozli kreditlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirmoqda. Bunday islohotlar natijasida mintaqamizda xo'jalik yurituvchilar soni yildan yilga ko'paymoqda.

2.1.1-jadval

Xorazm viloyatida tumanlar kesimida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar soni (Dehqon va fermer xo'jaliklardan tashqari) ²⁷

Tumanlar	Jami	Shundan: 2015 -yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
Xorazm viloyati	13679	810
tumanlar:		
Bog'ot	865	66
Gurlan	828	29
Qo'shko'pir	776	50
Urganch	1346	120
Xazorasp	978	42
Xonqa	899	67
Xiva	2353	131
Shovot	737	22
Yangiariq	916	42
Yangibozor	550	26
Urganch sh.	3431	215

Ushbu jadval ma'lumotlaridan 2015-yil 1-iyul holatiga ko'ra tumanlar kesimida asosiy o'rinlarda yuridik shaxslarning 3431 tasi Urganch shahriga to'g'ri kelganini, shuningdek Xiva va Urganch tumanlarida yuridik shaxslar soni mos

²⁷ www.stat.uz

ravishda 2353 va 1346 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Hududlarda eng ko'p yangidan tashkil etilgan yuridik shaxslar miqdorlari bo'yicha ham aynan Urganch shahri, Xiva va Urganch tumanlari yetakchi o'rindaligini ko'ramiz.

Shu jumladan, mintaqada yuridik shaxslarning iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari tarkibida Savdo va umumiy ovqatlanish hamda sanoat tipidagi korxonalar soni ko'pchilikni tashkil etadi (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval


Xorazm viloyatida tarmoqlar kesimida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar soni (Dehqon va fermer xo'jaliklardan tashqari)²⁸

Iqtisodiyot tarmoqlari	2015-yil 1-iyul holatiga jami	2015-yil yanvar-iyul oylarida yangidan tashkil etilganlar soni
Sanoat	2227	146
Qurulish	1513	107
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1363	82
Transport va aloqa	515	33
Savdo va umumiy ovqatlanish	3625	208
Boshqa tarmoqlar	4436	234
Jami	13679	810

Tarmoq tarkibi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2015-yil 1-iyul holatiga ko'ra sanoat tarmoqlarida 2227 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi tarmoqlarida 1363 ta, qurulish, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida birgalikda 5138 ta yuridik shaxslar faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, mintaqamizda ushbu ma'lumotlardan foydalanib ularning tarmoq tarkibidagi ulushlari hisoblaydigan bo'lsak, yuridik shaxslar ulushlari sanoat tarmog'ida 16 % ni, qurulishda 11 % ni, qishloq va o'rmon xo'jaligida 10% ni, savdo va umumiy ovqatlanish bilan transport va aloqa xizmatlari birgalikda 31% ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin (2.1.1-chizma).

²⁸ www.stat.uz



2.1.1-chizma. Xorazm viloyati iqtisodiyot tarmoqlaridagi yuridik shaxslar ulushi²⁹

Ma'lumki, o'zining yoki boshqa shaxslarning jalb etilgan mol-mulki asosida o'z mehnati yoki yollangan mehnatni qo'llanish vositasida, tavakkal qilib va mulkiy javobgarlikni zimmasiga olib, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga, foyda olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar tadbirkorlik subyektlari hisoblanadilar. Shunday ekan, konstitutsiyamizning 51-moddasida O'zbekistonda fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburligi ta'kidlangan. Bu shuni anglatadiki, tadbirkorlik subyektlari hamisha soliq munosabatlari bilan aloqada bo'ladi. Demak, tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortishda avvalo, ularning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmiga ko'ra qaysi toifaga mansub ekanligini bilish lozim.

Hajmiga ko'ra, korxonalar yirik, o'rta va kichik korxonalariga taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003–yil 30–avgustdagi PF-3305-sonli farmoniga asosan kichik biznes subyektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- **yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar;**
- **xodimlarining o'rtacha yillik soni:**

²⁹ Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

- ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan;
- xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan;
- ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan **mikrofirmalar**;

• **quyidagi tarmoqlarning o'rtacha yillik xodimlari soni:**

— metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati 100 kishidan;

— mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan;

— fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalari 25 kishidan oshmagan **kichik korxonalar**.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014–yil 17–apreldagi PF-4609-sonli farmoniga asosan 2014-yil 1-iyuldan boshlab kichik korxonalarda xodimlarning cheklangan soni yiliga o'rta hisobda amaldagidan ikki baravarga oshiriladigan bo'ldi (2.1.3-jadval).

2.1.3-jadval

Kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha soni³⁰

№	Tarmoqlar nomi	Kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha cheklangan soni (nafar)
1.	Qurilish sanoati	200
2.	Yengil sanoati	200
3.	Oziq-ovqat sanoati	200

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-oktabrdagi 439-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kichik tadbirkorlik

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014–yil 17–apreldagi PF-4609 sonli farmonining 2-ilovasi

(biznes) subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasi"ning 427-satriga o'zgartirish kiritilib, avtomobil xo'jaligi (XXTUT-51121) tarmog'ida faoliyat yurituvchi kichik korxonalarga xodimlar sonini 25 tadan 50 tagacha oshirish huquqi berildi. Bu kabi amaliy tadbirlar tadbirkorlik subyektlariga soliq solish xususiyatlarida ahamiyatli o'rin egallab, ularning umumbelgilangan soliqlar o'rniga yagona soliq to'lovini amalga oshirishning imkonini berdi. Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki,

O'rta korxonalar qatoriga xodimlarning o'rtacha yillik soni kichik korxonalar uchun belgilangan miqdordan oshgan korxonalar kiradi.

Yirik korxonalar tarkibiga ishlovchilar soni 500 va undan ortiq kishini tashkil qiluvchi korxonalarni kiritish mumkin. Shularga muvofiq ishlovchilarning belgilab qo'yilgan sonini hisobot davrida oshirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda yo'l qo'yiladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq, yirik va o'rta korxonalar uchun umumbelgilangan soliqlar amal qiladi. Shu o'rinda aytish joizki, soliq kodeksining 351 – moddasiga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan soliq kodeksining 350-moddasi birinchi qismining 2-bandida ko'rsatilganlar hamda oilaviy korxonalar mustasno, yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

Fikrimizcha, soliq rag'batlari tushunchasi soliq imtiyozlariga qaraganda kengroq mazmun mohiyatga ega. Ularning mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, soliq imtiyozlari odatda soliqqa tortilishi kerak bo'lgan qiymatning budjetga yo'naltirilmay qonun hujjatlariga muvofiq ravishda tadbirkorlarning ixtiyorida qoldirilgan qismi hisoblansa, soliq rag'batlari esa soliq imtiyozlari bilan birgalikda soliq to'lovchilarga beriladigan har qanday afzalliklar majmuini anglatadi.

Bizningcha, mintaqada tadbirkorlik subyektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning mavjud mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- Tadbirkorlarga soliq imtiyozlarining berilishi;
- Soliq tekshiruvlarining kamaytirilishi;

- Pasaytirilgan soliq stavkalari o'rnatilishi;
- Soliqlarning soddalashtirilishi va unifikatsiyalanishi;
- Soliq hisobotlarining elektron shaklda internet tarmog'i orqali taqdim etilishi;
- Interaktiv soliq xizmatlarining ko'rsatilishi;
- Soliq maslahati xizmatlari amalga oshirilishi.

Soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, investitsiyalarni rag'batlantirishda va boshqalarda keng foydalaniladi.

Mintaqamizda amalga oshiriladigan soliq imtiyozlari quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- ✓ soliqlardan butunlay ozod qilish;
- ✓ yangi tashkil etilgan korxonalariga imtiyozlar berish;
- ✓ soliq to'lashdan vaqtincha ozod etish;
- ✓ soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- ✓ soliqdan qisman ozod qilish;
- ✓ xorijiy investitsiyalarga imtiyozlar berish;
- ✓ eksportga imtiyozlar berish va boshqalar.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tartiblash va boshqarish jarayonida bir qator vositalardan foydalaniladiki, bunda soliq tizimining soliq stavkalari va imtiyozlaridan foydalanish eng samarali va oson usullardan biri bo'lib yuzaga chiqadi.

2.2. Soliq stavkalarining Xorazm viloyati budjetini shakllantirishdagi rolini baholash.

Mamlakatda soliq sohasida islohotlarni takomillashtirgan holda, mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali aholi bandligi va real daromadlarini oshirish, mahsulotlar hajmini ko'paytirish, mintaqa eksport salohiyatini yanada oshirish shuningdek import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda bundan tashqari mintaqa budjetining mustahkamligini ta'minlashda soliq imtiyozlaridan foydalanish hamda soliq stavkasining optimal darajasini o'rnatish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.


Soliqlarning mamlakat shu jumladan, mintaqa iqtisodiyotiga ta'siri, asosan, ularning stavkalarining darajasi va imtiyozlar miqdori bilan belgilanadi. Respublika soliq tizimining shakllanishini hozirgi bosqichida soliq stavkalarining darajasi eng munozarali masalalardan hisoblanadi. Soliq stavkalari respublika va mahalliy budjetlar xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda muvozanat darajasini hamda xo'jalik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Demak, ular moliya-budjet munosabatlarini sog'lomlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Soliq stavkalari va imtiyozlari korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaganlari holda, moliya-budjet munosabatlarining pul muomalasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siriga barham bera olishi ham kerak. Bu esa, respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq islohotining muhim jihatini tashkil etadi.

Soliq elementlari tarkibida soliq stavkalari alohida o'rin tutadi. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq stavkasi deganda soliq obyektining har bir soliq birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor tushuniladi. Soliq stavkasining ahamiyati soliq obyektini qancha qismi qanday miqdorda majburiy to'lov sifatida budjetga undirishini xarakterlaydigan masalaga javob beradi.³¹

Soliq stavkalarining o'zgarishi mintaqa budjetiga 2 xil ta'sir qiladi. Jumladan, agar soliq stavkalarining optimal kamaytirilishi qisqa muddatda mintaqa

³¹ A.Vahobov. Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: Sharq, 2009. – 28b

budjetining kamomadiga sabab bo'lishi mumkin, ammo keyinchalik past darajali soliq stavkalari soliq to'lovchilar sonining ortishiga sharoit yaratib, natijada aholi bandligining ortishiga hamda mintaqa budjetining mustahkamlanishiga sabab bo'ladi (2.2.1-chizma).



2.2.1-chizma. Soliq stavkalari kamaytirilishining mintaqa budjetiga ta'siri³²

Odatda rivojlanayotgan davlatlarda ishlab chiqarishni kengaytirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida vaqt o'tishi bilan soliq stavkalari ma'lum bir optimal meyorigacha pasaytirilib boriladi.

Aksincha, soliq stavkasining ortishi natijasida qisqa muddatli davrda mintaqa budjetiga soliq tushumini ko'paytiradi, ammo keyinchalik bu holat raqobatlashgan bozorda yuqori rentabellikka ega bo'lmagan korxonalarining rasmiy bozordan chiqib xufyona iqtisodiyotda faoliyat yuritishiga yoki tadbirkorlik faoliyatining butkul to'xtatilishiga olib keladi. Natijada soliq to'lovchilar soni kamayib mintaqa

³² Muallif ishlanmasi

budjetining xarajatlari daromadlaridan oshib ketishiga sabab bo'ladi (2.2.2-chizma).



2.2.2-chizma. Soliq stavkasining ortishi natijasida mintaqa budjetiga ta'siri³³

Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi ham mintaqa budjetiga huddi yuqorida aytib o'tganimizdek, 2 yoqlama ta'sir qiladi. Bunda, budjetga yo'naltirilishi kerak bo'lgan soliq miqdori maqsadli sarflash evaziga soliq to'lovchilarning ixtiyorida qoldiriladi. Bu mablag'lar tadbirkorlarga o'z faoliyatlarini kengaytirishda, shuningdek yuqori foyda olishda qo'shimcha ishtiyoq bag'ishlaydi. Soliq imtiyozlarini qo'llash ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshiriladi.

Bizning magistrlik dissertatsiyamizni yozish jarayonidagi tahlillar ko'rsatmoqdaki, respublikada bo'lgani singari viloyat mahalliy budjeti daromadlari ham yildan yilga ortib bormoqda. Bunda mintaqa budjeti daromadining asosiy manbasini soliqlar tashkil etadi (2.2.1- jadval).

³³ Muallif ishlanmasi

2.2.1-jadval.

Xorazm viloyati bo'yicha 2000-2015-yillar bo'yicha budjetga undirilgan tushumlar dinamikasi, ming so'mda³⁴.

Soliq va majburiy to'lovlar	2000-yil	2004-yil	2006-yil	2008-yil	2010-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil
Jami tushum	23 775 276,2	54 003 889,3	79 143 832,2	142 528 719,2	234 558 654,4	369 635 228,7	457 590 365,3	531 683 289,0	677 620 100,0
<i>Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i</i>	2 503 378,2	4 993 601,6	3 592 085,0	7 410 980,7	6 013 683,1	10 931 452,7	12 833 408,6	9 585 620,4	15 041 100,0
<i>Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini yalpi daromadiga solinadigan soliq</i>	0,0	1 473 108,1	2 468 470,7	4 859 980,2	10 172 769,6	18 486 672,6	26 719 264,0	27 593 738,4	35 890 000,0
<i>Kichik korxonalar uchun yagona soliq</i>	396 476,5	2 074 635,6	4 422 974,0	8 705 207,1	12 245 388,7	22 420 825,5	30 290 348,8	35 576 865,5	46 883 000,0
<i>Jismoniy shaxslarning YaTF solig'i</i>					6 983 053,9	13 674 199,7	17 960 657,0	24 952 689,5	32 022 000,0
<i>Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</i>	3 339 606,2	10 644 301,0	18 277 360,9	35 223 930,8	52 213 525,7	75 781 712,6	92 293 396,8	106 418 990,9	124 740 000,0
<i>Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq</i>	531 366,0	1 413 687,0		3 149 658,0					
<i>Qo'shilgan qiymat solig'i</i>	7 060 751,2	15 908 234,2	22 804 035,6	37 903 670,2	63 161 038,0	100 865 094,9	110 527 335,6	124 030 243,9	168 990 000,0
<i>Aktsiz solig'i, jami</i>	6 289 160,0	7 071 803,4	8 749 565,7	12 255 222,4	15 036 054,7	19 416 990,8	25 236 061,6	27 069 043,8	32 753 000,0
<i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq</i>	637 666,6	1 376 270,4	3 596 441,9	4 287 424,7	7 279 209,0	8 556 620,3	9 965 202,5	14 973 443,1	16 225 000,0
<i>Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq</i>	336 808,3	503 773,2	554 286,7	810 400,1	4 134 922,5	8 525 290,9	10 750 570,5	12 003 701,7	14 966 000,0
<i>Yer solig'i jami:</i>	1 196 746,3	3 220 708,7	5 026 202,3	11 122 871,1	20 659 066,4	23 483 650,5	33 670 217,6	38 319 422,9	40 390 000,0
<i>Yagona yer solig'i</i>	410 615,9	1 522 990,6			10 357 866,3	7 608 564,4	13 238 300,6	13 662 007,4	11 454 000,0
<i>Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i</i>	321 749,2	947 328,2	1 879 091,9	3 538 332,1	6 713 668,9	11 522 787,9	15 584 003,3	17 553 960,4	22 182 000,0
<i>Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq</i>	36 795,9	27 756,5	15 270,2	64 952,4	34 906,2	168 623,5	270 867,0	316 387,8	207 000,0
<i>Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq</i>	30 201,1	502 906,9	676 187,3	204 142,5	322 324,6	670 276,2	895 829,6	877 931,6	1 986 000,0
<i>Ekologiya solig'i</i>	537 788,8	1 758 946,9	1 006 216,1						
<i>Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i</i>	182 138,2	533 770,8	575 923,8	0,0	3 123 909,5	2 887 258,4	3 954 353,4	3 789 802,3	6 705 000,0
<i>Davlat boji</i>	124 038,4	373 226,7	652 526,2	2 100 216,8	3 441 314,6	10 501 350,6	16 090 470,9	22 549 202,8	28 669 000,0
<i>Jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari uchun iste'mol qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun soliq</i>	0,0	194 934,7	2 734 662,8	6 868 067,3	13 386 405,4	22 503 289,5	26 365 160,7	39 959 474,3	53 159 000,0
<i>Boshqa soliq va yig'imlar</i>	572 354,5	1 932 223,6	2 105 112,9	5 967 657,7	16 351 082,5	28 299 590,8	39 127 843,9	43 561 684,8	58 930 000,0

³⁴ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2.2.1-jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, so'ngi yillarda Xorazm viloyati budjetida yuqori surarli o'sishni kuzatish mumkin. Xususan, 2015-yilda mintaqa budjeti 677 624 291,3 ming so'mni tashkil etib, 2014-yilgi mintaqa budjeti tushumi bilan taqqoslaganda 27,4 foizga o'sgan, 2010-yil bilan taqqoslaganda esa 2,8 baravarga ortgan. Soliq tushumlarining turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2015-yilda mintaqamiz budjetida eng salmoqli ulushni qo'shilgan qiymat solig'i 25 foizni, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 18,4 foizni, jismoniy shaxslar tomonidan transport vositalari uchun iste'mol qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun soliq 7,8 foizni tashkil qilgan.

Tadqiqotimizda tanlanma kuzatish asosida 2003-2015-yillarda yuridik shaxslarning foyda solig'ini (keyingi o'rinlarda foyda solig'i deb yuritiladi) ekonometrik model orqali tahlil qilishga harakat qildik. Ushbu davr mobaynida foyda solig'i stavkasi 20 foizdan 7,5 foizgacha kamayganini ko'rishimiz mumkin.

2.2.2-jadval


Xorazm viloyatida 2003-2015-yillarda foyda solig'i tushumi³⁵

<i>Yillar</i>	<i>Foyda solig'i stavkasi (x)</i>	<i>Foyda solig'idan tushum (y) (mln so'mda)</i>
2003	20,0	4 985,9
2004	18,0	4 993,6
2005	15,0	4 701,8
2006	12,0	3 592,1
2007	10,0	5 822,0
2008	10,0	7 411,0
2009	10,0	7 958,1
2010	9,0	6 013,7
2011	9,0	6 637,6
2012	9,0	10 931,5
2013	9,0	12 833,4
2014	8,0	9 585,6
2015	7,5	15 041,4

Bunda soliq tushumlarining nominal qiymatlarini inobatga olib, bir omilli regression tahlilimizni amalga oshirdik, shuningdek, asosiy omil sifatida foyda solig'i stavkasi x ni, natijasi sifatida esa soliq tushumlarining nominal (y) qiymatlarini olganmiz. Bugungi kunda mintaqa budjetiga foyda solig'ining

³⁵ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

tushumi qay darajada bo'lishi ushbu soliq stavkasiga ham bevosita bog'liq. Shuni hisobga olgan holda, ular o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlashda matematik usullardan foydalangan holda istiqbol davrga mo'ljallangan ilmiy prognozlar ishlab chiqilgan.



2.2.3-chizma. Soliq stavkasiga bog'liq holda soliq tushumlarining o'zgarishi³⁶

2.2.3-chizmada nuqtalar to'plami $y = ax^3 + bx^2 + cx + d$ funktsiyaga tegishli nuqtalar to'plamiga yaqin bo'lgani uchun ushbu funktsiyadan foydalanib, engkichik kvadratlar usuli bilan regressiya tenglamasini aniqladik.

$$\left\{ \begin{array}{l} y = -19,211x^3 + 927,91x^2 - 14575x + 78945 \\ R^2 = 0,6925 \\ R = 0,8321 \end{array} \right.$$

Bu yerda:

x – soliq stavkasi

y – foyda solig'idan tushum

R^2 – determinatsiya koeffitsienti;

R – korrelyatsiya koeffitsienti;

³⁶ Muallif ishlanmasi

Bunda korrelyatsiya koeffitsienti omil bilan natijaning bog'liqligini ifodalovchi ko'rsatkich.

Bog'lanish zichlik darajasi odatda quyidagicha talqin etiladi³⁷:

Agar $-0,3 < R < 0,3$ bog'lanish deyarli yo'q

($\pm 0,3; \pm 0,5$) - bog'lanish kuchsiz.

($\pm 0,5; \pm 0,8$) - bog'lanish o'rta miyon.

($\pm 0,8; \pm 1$) - bog'lanish kuchli.

Korrelyatsiya koeffitsiyentining kvadrati determinatsiya koeffitsiyenti deb ataladi va u natijaviy belgi umumiy o'zgaruvchanligining qaysi qismi o'rganilayotgan omil x hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Bizning regression modelimizda determinatsiya koeffitsienti 0,6925 tengligini ko'rsatdi. Agar determinatsiya koeffitsienti $R^2 > 0,6$ bo'lsa, tuzilgan ekonometrik model eng yaxshi deb hisoblanadi. Ushbu ijobiy bog'lanishdan kelib chiqib, regressiya tenglamasi yordamida foyda solig'i stavkasini yanada pasaytirish orqali budjetga foyda solig'i tushumi hajmini 2020-yilgacha prognoz qilamiz:

2.2.3-jadval

2016-2020-yillar uchun foyda solig'i tushumi bo'yicha prognoz³⁸

<i>Prognoz yillar</i>	<i>Foyda solig'i stavkasi</i>	<i>Foyda solig'idan tushum (mln da)</i>
2017	7	15798,2
2018	6,5	18135,9
2019	6	20750,2
2020	5,5	23655,5

Prognozda soliq stavkasini har yili 0,5 foizga kamaytirish soliq tushumiga qanday ta'sir qilishi hisoblangan. 2017-yilda soliq tushumi 15798,2 mln so'mga teng bo'lishi kutilgan bo'lsa, 2020-yilda 5,5 foiz qilib belgilanishi natijasida soliq hajmi 23655,5 mln so'm atrofida bo'lishi kutilgan.

Shuningdek, kichik korxonalar (Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) uchun belgilangan yagona soliq bo'yicha ham yuqoridagi kabi tahlilni amalga oshirdik. Tahlilimiz 2004-2015-yillardagi ma'lumotlar asosida amalga

³⁷ Соатов Н.М. Статистика. Дарслик. – Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2003 йил, - 217 б.

³⁸ Muallif ishlanmasi

oshirilgan bo'lib, bunda omil sifatida x – yagona soliq stavkasi, natijasi sifatida y – ushbu soliq turi bo'yicha mintaqa budjetiga tushumi olingan hamda ushbu davr mobaynidagi inflyatsiya darajalariga ham e'tibor berilgan (2.2.4-jadval).

2.2.4-jadval

2004-2015-yillardagi yagona soliq bo'yicha tushumi, stavkasi va inflyatsiya darajalari³⁹


Yillar	Yagona soliq stavkasi (x)	Yagona soliqdan tushum (mln.so'mda)	Inflyatsiya darajalari, % da	Inflatsiya ta'siri chiqarib olingandagi yagona soliqdan tushum (mln.so'mda)
2004	15,2	2074,64	3,7	2 000,6
2005	13	3284,70	7,8	2 938,3
2006	13	4422,97	6,8	3 704,6
2007	10	6082,15	6,8	4 770,0
2008	8	8705,21	7,8	6 333,2
2009	8	11773,92	7,4	7 975,5
2010	7	12245,39	7,3	7 730,5
2011	6	15747,31	7,6	9 239,1
2012	6	22420,83	7,0	12 294,0
2013	6	30290,35	6,8	15 551,6
2014	6	35576,87	6,1	17 215,6
2015	5	46883,80	5,6	21 483,9

Tahlil qilinayotgan davrda soliq stavkasi 15,2 foizdan 5 foizgacha kamayishi natijasida soliq tushumi 2074,64 mln. so'mdan 46883,8 mln. so'mgacha ortishiga, shuningdek, inflyatsiya ta'sirini chiqarib tashlanganda soliq tushumi 2000,6 mln.so'mdan 21483,9 mln.so'mgacha ortishiga sabab bo'lgan.

Regression-korrelyatsion tahlilimizni amalga oshirish uchun dastlab, 2.2.4-jadval ma'lumotlarini koordinatalar teksligida Mc.Excel dasturi yordamida nuqtalar to'plamini aniqlab olamiz. 2.2.4-chizmadagi 2 turdagi nuqtalar to'plami ham $y = a * e^{kx}$ funktsiyaning nuqtalar to'plamiga yaqin bo'lgani uchun ushbu funktsiyadan foydalanib, eng kichik kvadratlar usuli bilan regressiya tenglamasini,

³⁹ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi hamda Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

shuningdek, omil bilan natijaning bog'liqlik darajasini belgilovchi korrelyatsiya va determinatsiya koeffitsientlarini ham aniqladik.



2.2.4-chizma. Soliq stavkasiga bog'liq holda soliq tushumlarining o'zgarishi⁴⁰

Mc.Excel dasturidagi hisob-kitoblardan ekonometrik modelimizda regressiya tenglamasi $y = 118597 * e^{-0,274x}$ ga tengligi ma'lum bo'ldi, bundan tashqari, determinatsiya koeffitsienti 0,8998 ga tengligi, korrelyatsiya koeffitsienti esa 0,95 ga tengligi kelib chiqdi. Shuningdek, hisob-kitoblar inflyatsiya ta'siri chiqarib olingandagi regressiya tenglamasi $y = 43359 * e^{-0,206x}$ ga teng ekanini hamda determinatsiya va korrelyatsiya koeffitsientlari mos ravishda 0,9036 va 0,95 ga tengligini ko'rsatdi. Hisob-kitoblar shundan dalolat bermoqdaki, yagona soliq stavkasi bilan inflyatsiya darajasi inobatga olingandagi va inobatga olinmagandagi yagona soliq bo'yicha tushum o'rtasidagi bog'liqlik darajalari kuchli ekan.

Mintaqamiz hududlarining tadbirkorlik salohiyatlarini kengaytirib, ularning mahalliy budjetdagi ulushini oshirish tadqiqotimizdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham, Xorazm viloyati tarkibidagi shahar va tumanlarning mintaqa budjetiga qo'shgan hissalarini va undagi ulushlari holati bilan yaqindan tanishishga harakat qilamiz (2.2.5-jadval).

⁴⁰ Muallif ishlanmasi

2.2.5-jadval

**Xorazm viloyati tuman va shaharlari kesimida budjetga 2006-2015 -yillarda undirilgan tushumlar dinamikasi,
ming so'mda⁴¹**

Hududlar	2006-yil	% da	2008-yil	% da	2010-yil	% da	2011-yil	% da	2012-yil	% da	2014-yil	% da	2015-yil	% da
Jami tushum	79 143 832,2	100,0	142 528 719,2	100,0	234 558 684,7	100,0	292 887 715,4	100,0	369 635 228,7	100,0	531 683 289,0	100,0	677 624 291,3	100,0
Urganch shahar	36079258,8	45,6	67 321 777,3	47,2	99 922 659,6	42,6	123 431 540,8	42,1	163 549 368,6	44,2	218 101 284,1	41,0	275 145 290,7	40,6
Urganch tuman	6645407,2	8,4	12 495 404,5	8,8	22 711 994,0	9,7	35 409 312,2	12,1	41 725 301,5	11,3	69 572 234,2	13,1	88 013 924,3	13,0
Xiva tuman	5703915,6	7,2	8 402 427,5	5,9	15 260 875,1	6,5	18 799 172,1	6,4	24 211 481,2	6,6	42 846 527,4	8,1	47 589 552,4	7,0
Xazorasp tuman	6993247,8	8,8	9 431 859,5	6,6	21 053 655,1	9,0	22 926 500,1	7,8	34 299 845,2	9,3	45 220 995,7	8,5	65 050 597,9	9,6
Gurlan tuman	3451636,4	4,4	6 439 936,7	4,5	11 908 706,7	5,1	12 712 418,4	4,3	13 781 218,5	3,7	21 647 129,5	4,1	29 169 116,2	4,3
Shovot tuman	3297553,5	4,2	7 409 399,2	5,2	11 560 507,0	4,9	14 129 772,2	4,8	16 408 514,1	4,4	25 744 225,6	4,8	32 477 569,6	4,8
Yangiariq tuman	1917163,6	2,4	4 812 747,7	3,4	8 377 473,1	3,6	10 095 247,7	3,4	10 976 446,1	3,0	15 406 871,3	2,9	20 189 881,3	3,0
Qo'shko'pir tuman	3306392,4	4,2	5 640 556,4	4,0	10 572 614,1	4,5	12 607 185,5	4,3	14 449 717,3	3,9	20 885 772,7	3,9	25 688 987,0	3,8
Bog'ot tuman	2988804,0	3,8	6 170 992,8	4,3	9 891 226,8	4,2	13 367 065,0	4,6	16 716 873,4	4,5	25 575 089,4	4,8	30 804 223,1	4,5
Xonqa tuman	6413652,0	8,1	10 059 393,1	7,1	15 781 563,4	6,7	20 463 526,1	7,0	23 746 073,6	6,4	34 684 204,5	6,5	48 358 833,3	7,1
Yangibozor tuman	2346800,9	3,0	4 344 224,5	3,0	7 517 409,8	3,2	8 945 975,3	3,1	9 770 389,2	2,6	11 998 954,6	2,3	15 136 315,5	2,2

⁴¹ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'tgan yillar davomida mintaqa budjetiga udirilgan tushumlar miqdori sezilarli darajada o'sib borgani quvonarli hol albatta, ammo ushbu jadval raqamlari shundan dalolat bermoqdaki, 2006-2015-yillar davomida Urganch shahrining Xorazm viloyati budjetiga undirilgan tushumlaridagi ulushi 40 foizdan yuqori bo'lgan. E'tiborli jihati shundaki, Urganch tumanini hisobga olmaganda qolgan 9 ta tuman bo'yicha yig'ilgan tushumlar miqdori birgina Urganch shahrida undirilgan soliq va majburiy to'lovlar tushumiga teng kelmoqda. Ushbu tumanlarda soliq tushumlari reja topshiriqlari darajasida bajarilayotgan bo'lsa-da, ularning mintaqa budjetidagi ulushini talab darajasida deb bo'lmaydi. Chunki, viloyat budjetining aynan bir yoki ikkita hududga qattiq bog'lanib qolishi ham maqsadga muvofiq emas. Nazarimizda, viloyatda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayapti. Xorazm viloyati hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirmasdan va soliq bazasini kengaytirmasdan ularning soliq tushumlaridagi ulushlarini oshirish mumkin emas. Demak, mintaqa hududlarining soliq tushumlari ulushida keskin tafovutlar vujudga kelishi ham ijobiy holat emas ekan.

Bu holatni tadqiqotimiz obyektidan kelib chiqib viloyat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonidan ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, mahalliy soliqlar va yig'imga so'nggi 5 yil davomida viloyat budjeti daromadlarining o'rtacha 24 foizini qoplagan xolos. Mahalliy budjet daromadlarining qolgan qismi umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, mahalliy budjetlar ixtiyoriga qoldirilgan soliq tushumlari hisobiga shakllantirilmoqda. Jumladan, 2012-2014-yillarni tahlil qiladigan bo'lsak, yuridik shaxslarning foyda solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq, qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarining miqdori to'la hajmda Xorazm viloyati budjetiga qoldirildi (2.2.6-jadval).

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlardagi
ajratmalar me'yori⁴²**

Soliq turi	Yuridik shaxslarning daromadiga soliq			Mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq			Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq			QQS			Aktsiz solig'i Alkogol mahsuloti (etil spirtidan tashqari) uchun			Yer osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq		
	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50	50	100	100	100	100
Andijon viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50	50	100			
Buxoro viloyati	53	55	55	100	100	100	50	50	50	53	55	55	50	50	50			
Jizzax viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100						
Qashqadaryo viloyati	65	52	52	100	100	100	100	100	100	65	52	52	50	50	50			
Navoiy viloyati	61	66	62	100	100	100	61	66	62	61	66	62		50	50			
Namangan viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100			
Samarqand viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100			
Surxondaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Sirdaryo viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100			
Toshkent viloyati	62	57	50	100	100	100	50	50	50	62	57	50	50	50	50			
Farg'ona viloyati	93	98	98	100	100	100	100	100	100	93	98	98	50	50	50			
Xorazm viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50	50	100			
Toshkent shahri	5	5	3	5	5	3	5	5	3	5	5	3	50	50	50			

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda №1675-sonli, 2012- yil 25-dekabrda №1887-sonli, 2013-yil 25-dekabrda №2099-sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qaroriga asosan mintaqalarning o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash darajasini oshirish, mahalliy budjetlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida quyidagi umumdavlat soliqlari va boshqa daromadlar bo'yicha tushumlar:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq (2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qarorning 11-ilovasida nazarda tutilgan);
- yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq (2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qarorning 12-ilovasida nazarda tutilgan);
- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'iga aksiz solig'i;
- chakana savdo tarmoqlarida sotiladigan oltindan yasalgan zargarlik buyumlariga aksiz solig'i;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qarorining 29-ilovasiga muvofiq davlat bojlari, yig'imlar va jarimalar to'liq hajmda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlari daromadlariga o'tkaziladi.
- Mobil aloqa xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga yo'naltiriladigan qismi, abonentning ro'yxatga olingan joyiga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va viloyatlarning mahalliy budjetlariga o'tkaziladi.

2.3. Xorazm viloyati iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlarining hozirgi holati tahlili.

Dastavval, Xorazm viloyati iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlarning tahliliga to'xtalishdan oldin Xorazm viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga nazar tashlasak bizningcha maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, mintaqamizda 2015-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ning nominal qiymati 5692,6 mlrd. so'mda baholandi. 2015-yilda YaHM ning real xajmining o'sish sur'atlari o'tgan yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil qildi. Mintaqamiz iqtisodiyotining o'tgan yilgi tarmoq tarkibiga e'tibor qiladigan bo'lsak, tarmoq ulushlari quyidagicha:

- sanoat 15,2 foizni;
- qishloq xo'jaligi 29,7 foizni;
- transport va aloqa 9,7 foizni;
- qurilish 10,3 foizni;
- savdo va umumiy ovqatlanish 8,2 foizni;
- boshqalar 22,1 foizni;
- mahsulotlar va eksport va import operatsiyalariga sof soliqlar 4,8 foizni tashkil qilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, 2015-yil yakunlariga ko'ra YaHM ishlab chiqarish umumiy xajmining 74,1 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri kelgan. Fikrimizni mintaqamizning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar qismidan dissertatsiyamizga taalluqli qismiga qaratadigan bo'lsak, bilamizki, soliq imtiyozlari tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi kuch, ruhiy tayanchi va ko'magi hisoblanadi. Tadbirkorlarimiz o'rtasida soliq imtiyozlaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Shuni aytish lozimki, bu qiziqishlarning asosiy sabablaridan biri qo'shimcha foyda olib tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish shu bilan birga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratib aholining real daromadlarini oshirishdir.

Darhaqiqat, bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish sharoitida soliqlarning rag'batlantirish funksiyasiga ko'proq e'tibor berilishi bejiz emas, sababi, rag'batlantirish natijasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy masalalarni hal etish imkonini beradi.

Aytish lozimki, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, ishlab chiqarishni rivojlantirishga hamda bugungi kunda iqtisodiyotimiz duch kelayotgan ayrim muammolarni hal etishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Aks holda, soliq imtiyozlarining ishlash mexanizmiga jiddiy putur yetishi ehtimoldan xoli emas. Mamlakatimizda ko'p hollarda berilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik natijasida ularning yetarli darajada naf bermayotganligi kelib chiqmoqda.

Endilikda soliq imtiyozlarini belgilashda ayrim toifa soliq to'lovchilarni soliqlardan to'liq yoki vaqtincha ozod qilish yoki soliqlarni kamaytirish bilan birgalikda korxonalar ixtiyorida imtiyoz hisobiga qoladigan mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanish maqsad qilib qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, imtiyozlar tizimini yana bir yo'nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ular tomonidan budjetga va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'lanadigan soliqlarni va majburiy to'lovlarni kamaytirish yoki unifikatsiya qilish hisobiga, ular zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirish bilan ularning moliyaviy faoliyatini sog'lomlashtirishga qaratilgan.

Ushbu maqsadlar yo'lida Prezidentimizning 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli qarori bilan mamlakatimiz soliq tizimi samaradorligini oshirish maqsadida soliq siyosatiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Unga muvofiq, 2016-yildan boshlab xizmatlar ko'rsatuvchi barcha tarmoq mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi. Hisob kitoblarga ko'ra soliq stavkasini kamaytirilishi natijasida viloyatdagi tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida 4,5 mlrd. so'm mablag' qoldirilishi kutilmoqda. Shuningdek, avtomobil xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yurituvchi kichik

korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha sonini 25 nafardan 50 nafargacha oshirgan holda kichik biznes subyektlariga berilgan imtiyoz va yengilliklardan foydalanish huquqi berildi. Bu esa, o'z navbatida, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratib, transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalarni faoliyatini yuritishda qo'shimcha qulayliklar yaratadi, hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 28-martdagi "Tekstil sanoati korxonalarini tezkor rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1152-sonli qarori bilan respublikadagi barcha tekstil korxonalari 2018-yil 1-yanvarga qadar mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod qilindi. Ta'kidlash joizki, oldin mazkur soliq imtiyozlari ishlab chiqarishdagi mahsulot eksporti ulushi 80 foizdan ortiq bo'lgan korxonalariga tatbiq qilinadigan bo'lsa, endilikda, 2016-yil 1-yanvardan boshlab mazkur soliq imtiyozlari barcha tekstil korxonalari uchun tatbiq qilinadi. Ushbu imtiyoz viloyatdagi birgina "Uztex Shovot" MCHJ ga 2016-yilda 750,0 mln. so'mni tejab qolish imkonini beradi va o'z o'rnida bu mablag'lar ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-yanvardagi "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1050-son qarori bilan nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalariga, bo'shaydigan mablag'lar yangi ishlab chiqarishlarni barpo etishga, shuningdek, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda zarur bo'ladigan xom ashyo va materiallar xarid qilishga, kiritilgan investitsiyalarni qoplashga, jumladan kreditlarni to'lashga yo'naltirish sharti bilan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan berilgan soliq imtiyozlarining amal qilishi 2018-yilga qadar uzaytirildi.

Iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda soliq imtiyozlarini to'g'ri belgilash, ulardan samarali va oqilona foydalanish muhim hisoblanadi. Chunki soliq imtiyozlari orqali davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kapital qo'yilmalarni amalga


o'shish, xorijiy sarmoyalarni keng ko'lamda jalb qilish, korxonalarining investitsion salohiyatini o'shish, ishlab chiqarishni sifat jihatidan rivojlantirish, raqobat muhitini shakllantirish va pirovardida yangi ishchi o'rinlarini tashkil etishga erishiladi.

Mamlakatimizda yuritilayotgan soliq siyosatida soliq imtiyozlari asosan investitsion faoliyatni rag'batlantirishga, ishlab chiqarishni yangi texnik va texnologik asbob-uskunalar bilan qayta modernizatsiya qilishga, mamlakatimiz eksport salohiyatini ko'paytirishga qaratilgan.

Imtiyozlardan maqsadli foydalanishni ta'minlash uchun 1-bobda aytib o'tganimizdek, soliq imtiyozlarining ko'pchilik qismi soliq kodeksi va President qarorlari, farmonlari shuningdek Vazirlar Mahkamasining qaror va farmonlari asosida beriladi.

Ma'lum bir davrga berilgan soliq imtiyozlari muddatlarining tugashi hamda soliq qonunchiligida o'zgarishlar, yangilanishlar natijasida soliq imtiyozlarining soni tez-tez o'zgarib turadi. Chunki, jamiyatda ayrim turdagi soliq imtiyozlariga talab kuchli bo'lsa, boshqa turdagi soliq imtiyozlariga esa talab kam bo'lishi mumkin, foydalanilmay qolgan imtiyozlar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rstish sohasini rag'batlantirishga hissa qo'shmasligi mumkin. Shunga ko'ra, ba'zi imtiyozlarning muddatlari uzaytiriladi, ba'zi kam foydalaniladigan imtiyozlar esa bekor qilinadi. Hisoblashimizcha, hozirda soliq kodeksi asosida beriladigan imtiyozlar soni 240 ta, Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmonlari asosida beriladigan imtiyozlar soni 100 dan ortiq. Ya'ni soliq imtiyozlari sonining 70 foizidan ortig'i soliq kodeksi asosida beriladigan imtiyozlarga to'g'ri kelmoqda.

Shu boisdan ham mintaqamizda 2011-2015-yillarda tadbirkorlarimizga soliq kodeksiga asosan berilgan imtiyozlar jami soliq imtiyozlarida eng yuqori salmoqni egallagan (2.3.1-chizma).




2.3.1-chizma. Xorazm viloyatida 2011-2015-yillarda solliq imtiyozlarining ulushi, foizda⁴³

Xususan, 2011-yilda solliq kodeksiga va hukumat qarorlariga asosan berilgan imtiyozlarining jami solliq imtiyozlardagi ulushi mos ravishda 77,2 va 22,8 foizlarni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilda esa 72,3 va 27,7 foizdan iborat bo'ldi. Umumiy holda aytganda, o'tgan 5 yil davr mobaynida kodeksiga asosan berilgan imtiyozlar ulushi 70 foizdan yuqori ekanini ko'rish mumkin. Ammo ulardan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar soni o'rtasida aksincha teskari nisbat mavjud, ya'ni Prezident va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmonlariga asosan solliq imtiyozlardan foydalanuvchilar jami imtiyozlardan foydalanuvchilarning 75 foizidan ortig'ini tashkil etadi.

Shu bilan birga, viloyatda kodeks va hukumat qarorlari asosida berilgan jami imtiyozlar miqdori yildan yilga ortmoqda. Xususan, viloyatda o'tgan 3 yil davomida xo'jalik yurituvchi subyektlarning solliq imtiyozlaridan foydalanish darajasi keskin ko'tarildi (2.3.2-chizma).

⁴³ Xorazm viloyati Davlat Solliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..



2.3.2-chizma. Xorazm viloyatida 2011-2015-yillarda soliq imtiyozlarining hajmi, ming so'mda⁴⁴

Shu o'rinda e'tibor qaratish lozimki, 2012-yilda imtiyozlar hajmi 40863729,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda oldingi yilga nisbatan 3 baravardan ko'pga ortib 135285013,6 ming so'mga yetdi. 2014-yilda esa bu miqdor 169348137,7 ming so'mni tashkil etdi. Bizningcha, mintaqada so'ngi 3 yil davomidagi soliq imtiyozlarining hajmi keskin ortishining asosiy sabablaridan biri Prezidentimizning 2013-2015-yillarda Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan qarorlaridir, ya'ni:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorazm viloyatining obodonchilik va aholi suv ta'minotini tubdan yaxshilash, Urganch shahar bosh rejasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 - yil 6-dekabrda PQ-1874-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013 — 2015 yillarda Xorazm viloyatining sanoat potentsialini rivojlantirish dasturi to'g'risida" 2012 - yil 22 - noyabrda PQ-1856-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom taraqqiyot banki ishtirokida Xorazm viloyati Toshsoqa tizimining magistral sug'orish kanallarini tiklash

⁴⁴ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 6-noyabrda PQ-1849-sonli qarori;

➤ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013- yil 20-martdagi "2013—2015 yillar davrida Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi" qarorini tasdiqlash to'g'risidagi Xorazm viloyati hokimining 2013 - yil 25-martdagi 70-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qurulish materillar ishlab chiqaruvchi korxonalar, sanoat ishlab chiqarishini tashkil qilgan korxonalar, mehmonxona va turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar, shuningdek yangidan tashkil etilgan korxonalar va boshqa turdagi korxonalar ishlab chiqarishini yangidan boshlash va kengaytirish uchun beriladigan soliq imtiyozlari hajmi ortgan.

Soliq imtiyozlaridan foydalanishni viloyatdagi hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda ham Urganch shahri yaqqol yetakchilik qilmoqda.

2.3.1-jadval

Hududlarning imtiyozlardan foydalanishdagi ulushlari, foizda⁴⁵


Shahar va tumanlar	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil
<i>Urganch shahri</i>	46,3	50,5	41,3	37,2	39,3
<i>Urganch tumani</i>	8,2	10,0	5,8	3,8	3,7
<i>Xiva tumani</i>	5,1	1,8	2,6	2,2	1,9
<i>Xazorasp tumani</i>	0,8	0,1	4,6	4,8	4,5
<i>Gurlan tumani</i>	0,2	0,6	5,7	4,6	3,1
<i>Shavat tumani</i>	9,5	5,8	8,6	7,1	7,5
<i>Yangiariq tumani</i>	0,8	0,8	0,6	5,3	6,2
<i>Qo'shko'pir tumani</i>	12,0	10,6	5,5	4,6	4,8
<i>Bog'ot tumani</i>	11,8	4,7	5,8	4,9	5,6
<i>Xonqa tumani</i>	4,5	6,4	15,0	21,8	18,9
<i>Yangibozor tumani</i>	0,7	8,8	4,2	3,6	4,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida o'tgan 5 yil davomida ularga berilayotgan imtiyozlar hajmida Urganch shahrining ulushu o'rtacha 40 foizdan yuqorini tashkil qilgan, Xonqa tumanining ulushi esa 4,5 foizdan 18,9 foizgacha o'sgan. O'tgan yilning sarhisobi bo'yicha Xiva tumani 1,9 foiz bilan imtiyozlardan eng kam foydalangan hudud bo'lgan. E'tiborli jihati shundaki, Xiva va Xonqa

⁴⁵ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

tumanlarining mahalliy budget tushumidagi ulushlari deyarli teng, ya'ni 7 foizni tashkil qiladi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tadbirkolik rivojlanayotgan hududda imtiyozlardan foydalanadigan xo'jalik yurituvchilar soni ko'p bo'ladi.

Shu o'rinda soliq imtiyozlaridan foydalangan xo'jalik yurituvchilar soni o'tgan besh yil davomida o'rtacha yiliga 2591 tani tashkil etgan. Shuningdek, 2011-yilda o'rtacha bitta xo'jalik yurituvchi subyekt hisobiga to'g'ri keluvchi soliq imtiyozining hajmi 12830366,9 so'mni, 2013-yilda 50217154,27 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib bu o'rtacha miqdor 60893611,72 so'mga teng bo'ldi.



2.3.3-chizma. O'rtacha bitta xo'jalik yurituvchi subyekt hisobiga to'g'ri keluvchi soliq imtiyozining hajmi, so'mda⁴⁶

2013-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga to'g'ri keluvchi imtiyozlarning o'rtacha miqdori keskin ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mintaqamizda so'ngi 3 yil davomidagi soliq imtiyozlarining hajmi keskin ortishining asosiy sabablaridan biri Prezidentimizning 2013-2015-yillarda Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan qarorlaridir.

2-bob bo'yicha xulosa.

⁴⁶ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi..

Tadqiqotimizning ikkinchi bobini umumlashtirib shuni aytishimiz mumkinki, olib borilgan tahlil natijalariga asoslangan holda xulosa qiladigan bo'lsak, stavkalarini o'zgarishi hamda soliq sohasidagi islohotlarning mintaqa budjetiga ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi. Shuning uchun ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida soliq imtiyozlari va soliq stavkalarining takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi bejizga emas. Shu o'rinda soliq imtiyozlari va soliq stavkalarini alohida takomillashtirish va ularning ta'sirini baholash lozim. Chunki, soliq imtiyozlarining optimal darajasini o'rnatishligi ma'lum miqdordagi korxonalar faoliyatiga ta'sir qilsa, soliq stavkalarining o'rnatilishi esa butun jamiyatdagi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga ta'sir qiladi va buning natijasi budjet daromadlarida o'z aksini topadi. Soliqlarning mamlakat shu jumladan, mintaqa iqtisodiyotiga ta'siri, asosan, ularning stavkalarining darajasi va imtiyozlar miqdori bilan belgilanadi. Soliq stavkalari respublika va mahalliy budjetlar xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda muvozanat darajasini hamda xo'jalik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini belgilaydi. Demak, ular moliya-budjet munosabatlarini sog'lomlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bilan birga, mintaqa budjetini hududlar o'rtasida taqsimlanishi tahlil qilinganda uning asosan Urganch shahriga bog'lanib qolganligi kuzatildi. Bu esa qolgan hududlarda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, mintaqa budjeti daromadlarini ta'minlashda Respublika budjetidan ajratmalarga ko'p tayanilganligiga guvoh bo'ldik. Bu holat esa mahalliy soliqlarning yig'iluvchanligiga qiziqishning kamayishiga sababchi bo'lishi mumkin. Bu holatni tadqiqotimiz obyektidan kelib chiqib viloyat budjeti daromadlarini shakllantirish jarayonidan ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, mahalliy soliqlar va yig'imlar o'tgan besh yil davomida viloyat budjeti daromadlarining o'rtacha 24 foizini qoplagan xolos. Mahalliy budjet daromadlarining qolgan qismi umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, mahalliy budjetlar ixtiyoriga qoldirilgan soliq tushumlari hisobiga shakllantirilmoqda.

3-bob. Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida soliq rag'batlari hamda imtiyozlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.


3.1. Xorazm viloyati asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini shakllanishida soliq imtiyozlari samaradorlini baholash.

Magistrlik dissertatsiyamizni yozish jarayonida shunga amin bo'ldik-ki, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda eng samarali ta'sir qiluvchi tizim soliq tizimi ekan. Soliqlarning har qanday o'zgarishi iqtisodiyotga multiplikativ ta'sir qiladi. Ya'ni soliq stavkalarining ma'lum koeffitsientga kamaytirilishi ishlab chiqarishning undan ko'p baravar ortib ketishiga olib kelishi mumkin. Soliqlarning ta'sirchanlik darajasi ham aynan shundan kelib chiqib aniqlanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda ko'plab vosita va dastaklar qatorida soliq imtiyozlaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hozirgi murakkab sharoitda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari, ko'p jihatdan, mavjud soliq imtiyozlarining ta'sirchanlik darajasiga bevosita bog'liq. Soliq imtiyozlarining ta'sirchanlik darajasi yuqori bo'lsa, ularni taqdim etish orqali ko'zlangan maqsadlarga to'liq erishiladi. Biroq amaliyotga ko'ra, hozirgi paytda ko'plab soliq imtiyozlari berilayotgan bo'lishiga qaramay, ular yetarlicha samara bermayotganligi, soliq to'lovchilar o'rtasida tengsizlikni yuzaga keltirayotganligi natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishilmayapti. Shu bois, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash alohida dolzarblik kasb etadi, ularning oldiga qo'yilgan vazifalar bajarilishi ham shuni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, soliq imtiyozlarining samaradorligi va uni baholashning uslubiy asoslari borasida iqtisodiy adabiyotlarda yagona to'xtamga kelinmagan.

Mintaqamiz soliq tizimini o'rganish mobaynida tadqiqotimiz obyektini hisoblangan soliq imtiyozlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga alohida e'tibor qaratishga harakat qildik. Fikrimizcha, soliq imtiyozlarining samaradorligi deyilganda soliq imtiyozlarining budjet daromadlarining shakllanishiga, ijtimoiy muhit yaxshilanishiga va korxonatashkilotlarning iqtisodiy faoliyatiga samarali

ta'sirini tushunish mumkin. Shunga ko'ra soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash mexanizmini 3 guruhga ajratish mumkin.



3.1.1 - chizma. Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholovchi asosiy yo'nalishlar⁴⁷

Soliq imtiyozlarining budjet samaradorligi deganda, imtiyoz hisobiga qoldirilgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish natijasida budjetga olingan qo'shimcha daromadlarning soliq imtiyozlari hajmiga nisbati tushuniladi.

Soliq imtiyozlarining budjet samaradorligini (Keyingi o'rinlarda SIBS deb yuritiladi) baholash quyidagi ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi:

- budjetga tushgan soliq tushumlari hajmi;
- soliq imtiyozlari hajmi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bozor mexanizmlarining keng joriy qilinishi soliq imtiyozlari samaradorligini aniqlash masalasiga ham yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, fikrimizcha, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash masalasini soliq to'lovchilarning turli toifalari uchun alohida tartibda amalga oshirish lozim. Jumladan:

1. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs soliq to'lovchilar, shuningdek, budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun SIBS imtiyoz hisobiga qoldirilgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish natijasida budjetga qo'shimcha daromadlar ortishi bilan ifodalanadi.⁴⁸

⁴⁷ Ткачева Т.Ю. Разработка методических рекомендаций по проведению оценки эффективности налоговых льгот на региональном уровне.//Социально-экономические явления и процессы. – РФ.: 2013. - № 10. - С. 114

⁴⁸ О. Юлдашов. Солиқ имтиёзлари самарадорлигини баҳолаш методологияси. // “Молия ва солиқ”. – 2013, - 1016.

SIBS koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{BS} = \frac{ST_t - ST_{t-1} * I_t}{SI_t} \quad (1)$$

Bu yerda:

ST_t –baholanayotgan davrda budjetga soliq tushumlari hajmi;

ST_{t-1} –baholashdan oldingi davrda budjetga soliq tushumlari hajmi;

SI_t –soliq imtiyozlari hajmi;

I_t – baholanayotgan davrdagi inflyatsiya darajasi.

K_{BS} qiymati 1 dan katta yoki unga teng bo'lsa, SIBS maqbul (yetarli) hisoblanadi.

K_{BS} qiymati 1 dan kichik bo'lsa, SIBS past (yetarli emas) hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlarni inobatga olgan holda, soliq imtiyozlarining budjet samaradorligi (1) formuladan foydalanib, quyidagi jadval ma'lumotlari asosida 4 ta soliq turi bo'yicha hisoblaymiz.

3.1.1-jadval

2014-2015-yillarda QQS, foyda solig'i va yagona soliq bo'yicha soliq tushumlari va imtiyozlarning hajmi, ming so'mda⁴⁹

Soliq turlari	2014-yil	2015-yil		
	Tushum	Imtiyoz	Tushum	Inflyatsiya, % da
QQS	124030243,9	110276902,7	168994585,1	105,6
Foyda solig'i	9585620,4	3120296,4	15041432,8	105,6
Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq	27593738,4	1098400,9	35890550,7	105,6
Yagona soliq	35576865,5	12148628	46883801,9	105,6

Ushbu jadvalda berilgan soliq imtiyozlari jami soliq imtiyozlarining 80 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Bu ma'lumotlardan foydalanib, (1) formula orqali Xorazm viloyatida soliq turlari bo'yicha SIBS koeffitsientini aniqlaymiz:

$$SIBS_{QQS} = \frac{168994585,1 - 124030243,9 * 1,056}{110276902,7} = 0,34$$

⁴⁹ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida muallif muallif tomonidan tuzildi.

$$SIBS_{FS} = \frac{15041432,8 - 9585620,4 * 1,056}{3120296,4} = 1,57$$

$$SIBS_{SU} = \frac{35890550,7 - 35890550,7 * 1,056}{1098400,9} = 6,14$$

$$SIBS_{YS} = \frac{46883801,9 - 35576865,5 * 1,056}{12148628} = 0,76$$

Hisob-kitoblardan aniqlandiki, QQS bo'yicha budjet samaradorligi koeffitsienti 0,34 ga teng ekanligi maqbul holat emasligini anglatadi, ya'ni QQS bo'yicha imtiyoz sifatida bo'shagan mablag' natijasi mintaqa budjetini kamomadiga sabab bo'lgan. Ushbu soliq turi bo'yicha soliq imtiyozlarining hajmini yanada oshirish maqbul holat emas.

Foyda solig'i bo'yicha budjet samaradorligini hisob-kitoblardan 1,57 ga teng ekanini ko'rishimiz mumkin. Bu natija soliq imtiyozlarining budjet daromadlariga samarali ta'sir qilganini bildiradi. Shuningdek, bu yerda SIBS koeffitsienti 1 ga teng bo'lgunicha ushbu soliq turi bo'yicha soliq imtiyozlari hajmini oshirish imkoniyati mavjud.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga yagona soliq bo'yicha budjet samaradorligi 6,14 ga teng. Ushbu holatda ham soliq imtiyozlarining budjet samaradorligi ta'sirchanligi yuqori ekani ma'lum. Shu boisdan, ushbu soliq turi bo'yicha imtiyozlar miqdorini oshirish imkoniyati mavjud.

Va nihoyat, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq bo'yicha budjet samaradorligi darajasi belgilangan 1 koeffitsientli me'yordan pastligi sabab yagona soliq turi bo'yicha imtiyozlarni yanada oshirish mahalliy budjetning ushbu soliq turi bo'yicha daromadlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Har bir mintaqada ushbu usul orqali soliq imtiyozlarining budjet samaradorligini aniqlansa va ijobiy ta'sirchanligi yuqori bo'lgan soliq imtiyozlari tadbiiq etilsa, bizningcha mahalliy budjetlarning respublika budjetining ajratmalariga ko'p tayanmagan holda o'zini o'zi moliyaviv mustahkamlash qobiliyati kuchayardi.

Yuqoridagi misollarda soliqlarning har birida soliq ta'sirchanligi har xil ekanidan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, har bir soliq turi bo'yicha budjet samaradorligini baholash kelgusida tadbirkorlik sohasi uchun ham, budjet daromadlari mustahkamlanishi uchun ham zamin yaratadi.

Endi, tadqiqotimiz davomida Xorazm viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha soliq imtiyozlarining budjet samaradorligini baholashga harakat qilamiz.

3.1.2-jadval

2014-2015-yillarda Xorazm viloyati hududlar kesimida jami soliq tushumlari va imtiyozlarning hajmi, ming so'mda⁵⁰

Shahar va tumanlar	2014-yil	2015-yil			Soliq imtiyozlarining budjet samaradorligi koeffitsienti
	Jami tushum	Jami tushum	Jami imtiyozlar	Inflyatsiya, % da	
<i>Urganch shahri</i>	218 101 284,1	275 145 290,7	61522907,9	105,6	0,73
<i>Urganch tumani</i>	69 572 234,2	88 013 924,3	5735687,1	105,6	2,53
<i>Xiva tumani</i>	42 846 527,4	47 589 552,4	3019374,2	105,6	0,77
<i>Xazarasp tumani</i>	45 220 995,7	65 050 597,9	7040518,9	105,6	2,45
<i>Gurlan tumani</i>	21 647 129,5	29 169 116,2	4816380,2	105,6	1,31
<i>Shavat tumani</i>	25 744 225,6	32 477 569,6	11758020,8	105,6	0,45
<i>Yangiariq tumani</i>	15 406 871,3	20 189 881,3	9687282	105,6	0,40
<i>Qo'shko'pir tumani</i>	20 885 772,7	25 688 987,0	7453365,2	105,6	0,48
<i>Bog'ot tumani</i>	25 575 089,4	30 804 223,1	8694410,2	105,6	0,43
<i>Xonqa tumani</i>	34 684 204,5	48 358 833,3	29635117,8	105,6	0,39
<i>Yangibozor tumani</i>	11 998 954,6	15 136 315,5	7072624,2	105,6	0,35
Viloyat bo'yicha jami	531 683 289,0	677 624 291,3	156435688,5	105,6	0,74

Ta'kidlash kerakki, Xorazm viloyati shahar va tumanlarida tadbirkorlik sohasi rivoji bir xil darajada bo'lmaganligi sababli, 2015-yilda soliq imtiyozlarining budjet samaradorligi ham hududlar kesimida farq qiladi. Xususan, Urganch tumanida imtiyozlar miqdori 5735687,1 ming so'mni tashkil qilib budjet tushumiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, ya'ni SIBS koeffitsienti 2,53 ga teng bo'lgan, ushbu holatda SIBS koeffitsienti 1 ga teng bo'lgunga qadar imtiyozlar hajmini oshirish imkoniyati mavjud. Xazarasp tumani bo'yicha ham huddi Urganch tumanidagi holat kabi fikr yuritishimiz mumkin. Gurlan tumanida SIBS

⁵⁰ Xorazm viloyati Davlat Soliq Boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

koefitsienti normal holatda deb aytishimiz mumkin. Shovat, Yangiariq, Qo'shko'pir, Bog'ot, Xonqa va Yangibozor tumanlarida esa ushbu koefitsient o'rtacha 0,4 ga teng bo'lgan. Shuningdek, Urganch shahrida esa viloyat bo'yicha hisoblangan koefitsientga deyarli yaqin bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

2. Investitsion faoliyat ishtirokchisi bo'lgan soliq to'lovchilar uchun soliq imtiyozlarining budjet samaradorligi hisobot yili, joriy va kelgusi moliya yili uchun baholanadi. Soliq imtiyozlarining samaradorligini aniqlashda muhim investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida to'lanadigan soliq tushumlari budjetga qo'shimcha tushum hisoblanadi. Ushbu soliq to'lovchilar uchun budjet samaradorligi koefitsienti soliq imtiyozlarining har bir so'miga investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida to'g'ri kelgan qo'shimcha soliq tushumlari bilan xarakterlanadi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{BSI} = \frac{ST_t - SI_t}{SI_t} \quad (2)$$

Bu yerda:

ST_t –hisobot (joriy, kelgusi) davrida muhim investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida budjetga soliq tushumlari hajmi;

SI_t –hisobot (joriy, kelgusi) davrida muhim investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun berilgan soliq imtiyozlari hajmi.

K_{BSI} qiymati 1 dan katta yoki unga teng bo'lsa, SIBS maqbul (yetarli) hisoblanadi. K_{BSI} qiymati 1 dan kichik bo'lsa, SIBS past (yetarli emas) hisoblanadi.

Soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligini baholash quyidagi ko'rsatkichlarni taqqoslash asosida amalga oshiriladi⁵¹:

- xodimlarning o'rtacha soni;
- oylik o'rtacha ish haqi;
- iste'mol savati hajmi.

Soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligini baholashni ham yuqoridagi kabi soliq to'lovchilarning turli toifalari bo'yicha alohida tartibda amalga oshirishga harakat qilamiz:

⁵¹ Ксенда В.М. Налоговые льготы и развитие оценки их эффективности на региональном уровне.// "Economics & Law". - 2015. № 6 (52), - С. 22

1. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs soliq to'lovchilar uchun soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligi (SIIS) koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi⁵²:

$$K_{IS} = \frac{IHF_t}{IHF_{t-1}} : \frac{ISH_t}{ISH_{t-1}} * K_{MYF} \quad (3)$$

Bu yerda:

IHF_t – baholanayotgan davrda ish haqi fondi;

IHF_{t-1} – baholashdan oldingi davrda ish haqi fondi;

ISH_t – baholanayotgan davrda aholi jon boshi hisobiga iste'mol savati hajmi;

ISH_{t-1} – oldingi davrda aholi jon boshi hisobiga iste'mol savati hajmi;

K_{MYF} – soliq to'lovchilar maqsadli yo'naltirilgan faoliyatining tuzatuvchi koeffitsienti.

K_{IS} qiymati 0,6 dan katta yoki unga teng bo'lsa, SIIS maqbul (etarli) hisoblanadi. K_{IS} qiymati 0,6 dan kichik bo'lsa, SIIS past (etarli emas) hisoblanadi.

Ish haqi fondi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$IHF_t = IH_t \times XS_t \times 12 \quad (4)$$

Bu yerda:

IH_t – baholanayotgan davrda oylik o'rtacha ish haqi;

XS_t – baholanayotgan davrda o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni.

Maqsadli yo'naltirilgan faoliyatning tuzatuvchi koeffitsienti soliq to'lovchilar faoliyatining ijtimoiy ahamiyatlilik darajasini hisobga olish uchun qo'llaniladi.

Ushbu koeffitsient bo'yicha quyidagi qiymatlar tatbiq etiladi:

1,00 - maqsadli yo'naltirilgan faoliyati ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning doimiy ish bilan bandligini ta'minlash va ularni ishga joylashtirish hamda boshqa ijtimoiy sharoitlarni yaratish bilan bog'liq soliq to'lovchilar toifasi uchun;

0,80 - maqsadli yo'naltirilgan faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va aholiga keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatish bilan

⁵² О. Юлдашов. Солиқ имтиёзлари самарадорлигини баҳолаш методологияси. // “Молия ва солиқ”. – 2013, - 102 б.

bog'liq soliq to'lovchilar uchun;

0,60 - maqsadli yo'naltirilgan faoliyati keng doiradagi iste'molchilarga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish orqali daromad olish bilan bog'liq soliq to'lovchilar toifasi uchun.

Soliq imtiyozlari ijtimoiy samaradorligining miqdoriy ko'rsatkichlari hisobini yuritish imkoni bo'lmaganda yoki imtiyozlar berishdan maqsad soliq to'lovchi faoliyatining miqdoriy ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq bo'lmaganda, ularning ijtimoiy samarasi soliq to'lovchi faoliyati ijtimoiy natijalarini ifodalovchi sifat omillarini umumlashtirish orqali, jumladan:

- iqtisodiy dasturlarda belgilangan ijtimoiy vazifalarni hal qilish;
- aholining ish bilan bandligini ta'minlash va ishchilar malakasini oshirish;
- mehnat muhofazasi va sharoitlarini yaxshilash;
- aholining ijtimoiy himoyasiz qatlami uchun qulay sharoitlar yaratish, jumladan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish;
- ekologik xavfsizlikni oshirish orqali baholanadi.

Yuqoridagi bandlarning bajarilishini ta'minlovchi soliq imtiyozlari ijtimoiy samarali imtiyozlar hisoblanadi. Ushbu soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligi koeffitsienti shunday soliq to'lovchilar toifasi uchun birga teng sanaladi.

2. Jismoniy shaxs soliq to'lovchilar (ya'ni aholining ijtimoiy himoyalangan qatlamini qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilgan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan) toifasi uchun soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligini baholash xarid qobiliyatining o'zgarish koeffitsienti bo'yicha amalga oshiriladi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{IS} = \frac{\overline{SI}_t}{ISH_{t-1}} : \frac{\overline{SI}_{t-1}}{ISH_{t-1}} \quad (5)$$

Bu yerda:

\overline{SI}_t – baholanayotgan davrda bir oyda o'rtacha bir soliq to'lovchi hisobiga to'g'ri keladigan soliq imtiyozlari summasi;

\overline{SI}_{t-1} – baholashdan oldingi davrda bir oyda o'rtacha bir soliq to'lovchi hisobiga to'g'ri keladigan soliq imtiyozlari summasi;

ISH_t – baholanayotgan davrda aholi jon boshi hisobiga iste'mol savati hajmi;

ISH_{t-1} – baholashdan oldingi davrda aholi jon boshi hisobiga iste'mol savati hajmi.

Kx_Q koeffitsient qiymati 0,6 dan katta yoki unga teng bo'lsa, SIIS maqbul (etarli) hisoblanadi. Kx_Q koeffitsient qiymati 0,6 dan kichik bo'lsa, SIIS past (etarli emas) hisoblanadi.

Bir oyda o'rtacha bir soliq to'lovchi hisobiga to'g'ri keladigan soliq imtiyozlari summasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\overline{SI}_t = \frac{SI_t}{STS_t} : 12 \quad (6)$$

Bu yerda:

\overline{SI}_t – baholanayotgan davrda soliq to'lovchilar toifasiga taqdim etilgan soliq imtiyozlari hajmi;

STS_t – baholanayotgan davrda soliq to'lovchilar soni.

3. Investitsion faoliyat ishtirokchisi bo'lgan soliq to'lovchilar uchun soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi:

- hisobot (joriy, kelgusi) moliya yilida yangi ish o'rinlarini tashkil etish;
- hisobot (joriy, kelgusi) moliya yilida mavjud ish o'rinlarini saqlash;
- hisobot (joriy, kelgusi) moliya yilida yangi tashkil etilgan va saqlab qolingan ish o'rinlari hisobiga budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar.

Soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash quyidagi ko'rsatkichlarni taqqoslash asosida amalga oshiriladi⁵³:

- ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, bajarilgan ish va xizmatlar miqdori;
- sotishdan tushgan tushum;
- asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati;
- olingan foyda miqdori.

⁵³ Ксенда В.М. Налоговые льготы и развитие оценки их эффективности на региональном уровне.// "Economics & Law". - 2015. № 6 (52), - С. 22

Soliq imtiyozlarining natijasida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{IQ} = \frac{A_t / I_t - A_{t-1}}{A_{t-1}} \quad (7)$$

A_t – baholanayotgan davrda korxonalarining aylanma mablag'lari hajmi;

A_{t-1} – baholashdan oldingi davrda korxonalarining aylanma mablag'lari hajmi hajmi;

I_t – baholanayotgan davrdagi inflyatsiya darajasi.

K_{IQ} qiymati 1 dan katta yoki unga teng bo'lsa, SIIS maqbul (yetarli) hisoblanadi. K_{IQ} qiymati 1 dan kichik bo'lsa, SIIS past (yetarli emas) hisoblanadi.

Soliq imtiyozlari budjet, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligining umumiy bahosi tegishli koeffitsientlarni qo'shish asosida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilarning barcha toifalari uchun (investitsion faoliyat ishtirokchisi bo'lgan soliq to'lovchilar bundan mustasno) soliq imtiyozlari budjet va ijtimoiy samaradorligining umumlashgan koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K = \frac{K_{BS} + K_{IS} + K_{IQ}}{3} \quad (8)$$

Bu yerda:

K_{BS} – soliq imtiyozlarining budjet samaradorligi koeffitsienti;

K_{IS} – soliq imtiyozlarining ijtimoiy samaradorligi koeffitsienti.

K_{IQ} – soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi koeffitsienti

K koeffitsient qiymati 0,8 dan katta yoki unga teng bo'lsa, soliq imtiyozlarining budjet va ijtimoiy samaradorligi maqbul (yetarli) hisoblanadi.

K koeffitsient qiymati 0,8 dan kichik bo'lsa, soliq imtiyozlarining budjet va ijtimoiy samaradorligi past (yetarli emas) hisoblanadi.

3.2. Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq va soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari.

Ma'lumki, qonunchilikda tez-tez yangilanib, qo'shimchalar kiritilib turiladigan qonunchilik sohasi aynan soliq sohasi ekani barchamizga ayon. Chunki, tadbirkorlikning rivojlanishi, iqtisodiyotda ishlab chiqarish va xizmatlarning rivojlanishi va yangilarining kirib kelishi har bir davrga monand ravishda soliq qonunchiligi va uning mexanizmlarini takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantiradi. Shu sababdan, mamlakatda soliq va soliq imtiyozlarini takomillashtirgan holda, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarishini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali aholi bandligi va real daromadlarini oshirish, mahsulotlar hajmini ko'paytirish, mintaqa eksport salohiyatini yanada oshirish shuningdek import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda: "Soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi"⁵⁴.

Bugungi kunda tadbirkorlik sohasi o'tgan davrlardagisidan keskin farq qiladi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor qaratilib kelinayotganligi sabab, ushbu tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib bordi va munosib o'rin oldi. Xususan, 2014-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi sanoat tarmog'ida 31,7 foizni, qishloq xo'jaligida 98,3 foizni, xizmat ko'rsatish sohasida 51,5 foizni tashkil etdi. E'tiborli jihati shundaki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida band bo'lganlarning 77,6 foizi ushbu tadbirkorlik sohasiga to'g'ri kelib, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 56,1 foizni tashkil etgan.

⁵⁴ Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.

Oqilona va puxta ishlab chiqilgan soliq siyosatigina jamiyatda soliq to'lovchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini oladi. Hayot tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, tadbirkorlik subyektlari uchun ko'p turdagi va yuqori stavkalar amal qilishi natijasida soliq to'lovchilar o'rtasida soliq to'lashdan qochish hamda turli yo'llar bilan soliq obyektlarini yashirish holatlari yuzaga keladi. Shuning uchun ham, har doim mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq stavkalari va imtiyozlarini takomillashtirish zaruriyati mavjud bo'ladi.

Ma'lumki, soliq imtiyozlari jahon soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi. Soliq tizimida soliq imtiyozlaridan foydalanishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir⁵⁵:

birinchidan, soliq imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq to'lovchi (yuridik va jismoniy shaxs) larning jamiyatda tutgan mavqei, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma'noga ega bo'lmaydi;

ikkinchidan, davlat iqtisodiyotga ta'sir etib, uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri — bu jamiyatdagi ba'zi muhim sohalarni yoki soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya'ni, davlat soliq imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo'ladi, bundan ko'rinadiki, soliq imtiyozlari davlatni o'z funksiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

uchinchidan, soliq imtiyozlari qo'llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya'ni, bundan soliqlar sifatida budjetga jalb etilishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli budjetga jalb etilmasdan soliq to'lovchilarning o'zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to'lovlarini budjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini rag'batlantirishga erishiladi.

⁵⁵ A.Vahobov.Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: Sharq, 2009. – 35b

Soliq imtiyozlari to'g'risida fikr yuritganda ularning har doim ham faqat ijobiy tavsif kasb etmasligi borasidagi ayrim mulohazalar mavjudligini ta'kidlash lozim. Masalan, professor T.Malikov jahon ilg'or tajribasi uzil-kesil tasdiqlagan va soliq imtiyozlariga xos bo'lgan quyidagi ayrim salbiy jihatlarni ajratib ko'rsatadi⁵⁶:

- ✚ soliq imtiyozlari natijasida amalda hech qachon ular berilayotgan chog'ida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishilmagan. Ularning samaradorligi esa muayyan bir xarajatlarni yoki dasturlarni budjetdan bevosita maqsadli (ochiq-oydin va engil, oson boshqariladigan) moliyalashtirish orqali erishiladigan natijalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada past bo'lgan;
- ✚ soliq imtiyozlari iqtisodiy agentlarning teng raqobat qila olish printsiptini buzadi, bu esa iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rstadi;
- ✚ soliq imtiyozlariga ega bo'lgan subyektlar rivojlanishga bo'lgan intilishni yo'qotadilar va o'zlarining imtiyozli mavqeini saqlab qolishga harakat qilishadi, imtiyozlar bekor qilinganda esa ular faoliyat yuritishdan to'xtaydilar;
- ✚ imtiyozga ega bo'lmagan subyektlar har qanday yo'l bilan bo'lsada, uni qo'lga kiritishga harakat qiladilar;
- ✚ soliq imtiyozlari korrupsiyaga imkon yaratishi mumkin.

Shunday bo'lsada, soliq imtiyozlarining ijobiy jihatlari ularning salbiy holatlaridan ustunligi bois soliq imtiyozlarini takomillashtirib borish davr talabi hisoblanadi

Soliq imtiyozlarini optimallashtirish maqsadida ularni takomillashtirishning asosiy yo'nalishi – soliq va soliq imtiyozi o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning uzviylikini ta'minlashdan iborat. Mazkur aloqadorlik soliq imtiyozini beruvchi (taqdim etuvchi) va soliq imtiyozini oluvchi o'rtasidagi manfaatlarning mushtarakligini nazarda tutadi. Ya'ni, “soliq imtiyozlarining mukammalligi” yoki “soliq imtiyozlarini takomillashtirish” imtiyoz oluvchi (soliq to'lovchi) va imtiyoz beruvchi (davlat, davlat budjeti, soliqni undiruvchi) larning manfaatlariga zid

⁵⁶ Маликов Т.С. Солиқ имтиёзлари хусусида баъзи мулоҳазалар // “Солиқ тизимини такомиллаштириш йўналишлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, Тошкент молия институту, Ўзбекистон Миллий Университети. 2011 йил 26 февраль. – Т., 2011, 28-б

kelmasligi kerak. Eng avvalo, ana shu muvozanatning ta'minlanishiga erishilmas ekan, "soliq imtiyozlarining mukammalligi" yoki "soliq imtiyozlarini takomillashtirish" xususida gapirish o'zining ma'nosiga ega bo'lmaydi. Soliq imtiyozlarining mukammalligiga ularni takomillashtirish jarayonida erishiladi. Soliq imtiyozlari optimal tarzda taqdim etilgan bo'lsa, boshqa shart-sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ularni qo'llash natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishiladi va belgilangan vazifalar to'liq amalga oshiriladi.

Soliq imtiyozlarini takomillashtirish masalasi soliq tizimini takomillashtirish yo'nalishining bir qismi hisoblanadi. Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda soliq tizimini takomillashtirishning asosan 3 ta yo'nalishiga e'tibor qaratiladi:

- Soliq ma'murchiligini soddalashtirish;
- Soliqlarni soddalashtirish va unifikatsiya qilish;
- Soliq yukini kamaytirish.

Bizningcha, soliq yukini kamaytirish yo'nalishi soliq imtiyozlarini takomillashtirish masalasini ham o'z ichiga qamrab oladi. Fikrimizcha, hozirgi kunda soliq imtiyozlari va ulardan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Korxonalarining ham, davlat budjetining ham manfaatlariga samarali ta'sir qiluvchi soliq imtiyozlarini joriy etish;
- Soliq imtiyozlaridan foydalanish tartibini soddalashtirish;
- Soliq imtiyozlaridan maqsadli foydalanishni doimiy monitoring qilish;
- Ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta'sir qiluvchi soliq imtiyozlarini optimallashtirish;
- Ishlab chiqaruvchilarning soliq imtiyozlariga bo'lgan savodxonligini oshirish;
- Soliq imtiyozlari bo'yicha interaktiv xizmatlarni tashkil etish;
- Eksportni rivojlantiradigan soliq tizimlarining yangi mexanizmlarini yaratish.

Jahonda globallashtirish jaroyini kuchayib borayotgan bir paytda, mamlakatda tadbirkorlik muhitining yaxshilanib borayotganligi va aholi turmush darajasi

ko'tarilib, ularning dunyoqarashi rivojlanib borgan sababli, soliq sohasida zamon bilan hamnafas bo'lgan soliq tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mavjud soliq tizimining mexanizmlarini takomillashtirish va ularning istiqbollari belgilash soliq sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, tadqiqotimizda bir qator soliq imtiyozlarini takomillashtirishga va ularning istiqbolli xususiyatlariga alohida e'tibor qaratildi:

1. Jumladan, kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini soliq imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar va xizmatlarini eksport qilishda soliqlar orqali rag'batlantirishlarni quyidagicha guruhlariga ajratilgan holda taqdim etiladi:

- qo'shimcha qiymat solig'idan imtiyoz;
- aktsiz solig'idan imtiyoz;
- foyda solig'idan imtiyoz;
- mulk solig'idan imtiyoz.

Xususan, amaldagi tartib bo'yicha "Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2000-yildagi PF-2613-sonli Farmoniga asosan eksport qiluvchi korxonalar uchun foyda solig'i va mulk solig'ini to'lash tartibi umumiy sotish hajmida o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valyutaga sotilgan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportidagi (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan joydan qat'iy nazar) ulushiga bog'liq holda quyidagicha belgilangan:

- eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha miqdorda bo'lganida — belgilangan foyda solig'i va mulk solig'i stavkalari 30 foizga kamaytiriladi;

- eksport ulushi 30 va undan ko'proq foiz bo'lganida — belgilangan foyda solig'i va mulk solig'i stavkalari 50 foizga kamaytiriladi.

Mazkur soliq imtiyozi yagona soliq to'lovini hisoblash chog'ida mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etiladi.

Istiqbolda eksport qiluvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqlar orqali rag'batlantirish maqsadida quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznesni mamlakat eksportidagi ulushini yanada oshirish va eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish maqsadida, soddalashtirilgan tartibda yagona soliq to'lovini to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalariga, o'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning erkin almashtiriladigan valyutadagi eksporti ulushi quyidagilarni tashkil etsa⁵⁷:

✓ agar sotishning umumiy hajmida 15 foizgacha bo'lsa – yagona soliq to'lovi stavkasini 15 foizga kamaytirish;

✓ agar sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo'lsa – yagona soliq to'lovi stavkasini 30 foizga kamaytirish;

✓ agar sotishning umumiy hajmida 30 foizdan yuqori bo'lsa – yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunda, soliq imtiyozidan qolgan mablag'ni yangi texnika-texnologiya sotib olish va jihozlash sharti bilan berilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2014 - yildagi PF-4609-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2017-yilning 1-yanvarigacha soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'laydigan, shuningdek ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini va rentabelligini ta'minlovchi kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliq tekshiruvlari o'tkazilmasligi belgilangan. Ammo, amaldagi tartib bo'yicha soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'laydigan, shuningdek ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini va rentabelligini ta'minlovchi kichik tadbirkorlik subyektlarini to'g'ridan-to'g'ri imtiyozlar berish mexanizimi joriy qilinmagan.

Bizningcha, istiqbolda yangi me'yor joriy qilib, unga asosan: ketma-ket 3 yil davomida ishlab chiqarishning barqaror 10 foizdan ortiq o'sish sur'atlarini va rentabelligini ta'minlagan, ushbu uch yilning ma'lum bir davrida soliq va majburiy to'lovlarni to'lanmaganligi uchun to'langan penya miqdori to'langan soliqlarning 1

⁵⁷ Алимарданов И., Ражапов Ш.З. Ташмухамедов Д. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектларининг товар ва хизматларини экспорт қилишда солиқлар орқали рағбатлантириш масалалари// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. – Тошкент, 2016 . - № 2. - 66 .

foizidan kam bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlariga, 4-yil uchun ushbu subyektga belgilangan soliq stavkasini 20 foizga kamaytirgan holda hisoblash imkoniyati yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ushbu imtiyoz amalda joriy qilinsa tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini va rentabelligini oshirishga qiziqishi oshardi, soliq va to'lovlarni o'z muddatlarida to'liq tushishi ta'minlanardi, keyinchalik qo'llanilgan soliq imtiyozlari natijasida tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida qo'shimcha mablag'lar qolishiga olib kelardi.

3. Tayyorlov savdo faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi yalpi daromadiga (haq summasiga) nisbatan 33 % qilib belgilangan. Biroq, "tayyorlov savdo faoliyati" tushunchasining aniq bir ta'rifi mavjud bo'lmasdan, asosan ushbu faoliyat qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotishni nazarda tutadi.

Amaliyotda mazkur korxonalar tomonidan sotilayotgan mahsulotlar hajmi boshqa savdo korxonalarining tovar oborotidan ko'p bo'lsa ham, ushbu tashkilotlar tomonidan yalpi daromadini (haq summasini) kam ko'rsatilishi natijasida, budjetga hisoblanadigan yagona soliq to'lovi aynan shu faoliyatni amalga oshirayotgan savdo korxonalari tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovi summasidan kam bo'lmoqda.

Amaliyotda tayyorlov savdo korxonalari uchun soliq sof foydadan olinayotganligi sababli, mazkur korxonalar sun'iy ravishda sof foydani kamaytirib ko'rsatishi va foydani noqonuniy yo'llar bilan chiqarib olayotganlik holatlari kuzatilmoqda. Shuningdek, aynan shu faoliyatni amalga oshirayotgan, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarni olib-sotayotgan korxonalar tomonidan savdo tashkilotlari uchun belgilangan tartibda yagona soliq to'lovi to'lanishi natijasida, bir xil faoliyatni amalga oshirayotgan bir subyektlarni boshqasiga nisbatan ko'proq soliq to'lashiga to'g'ri kelmoqda.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasini 2016-yilda davlat budjeti parametrlari loyihasini tayyorlashda, tayyorlov savdo faoliyati uchun nazarda tutilgan alohida yagona soliq to'lovi stavkasini bekor qilish hamda mazkur korxonalar tomonidan yagona soliq to'lovi savdo korxonalari uchun belgilangan

miqdorlarda to'lanishini belgilash, hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar uchun ham ushbu tartibni bekor qilinishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ushbu imtiyoz natijasida soliq solishning adolatliligi printsipli ta'minlanardi, eng asosiysi mazkur soliq to'lovchilarining sof foydani sun'iy kamaytirib ko'rsatishining oldi olinib, savdo tushumi ortishiga olib kelardi.

4. Hozirgi kunda mamlakatimiz bozorlarini turli xildagi tovarlar bilan ta'minlash va istemolchilarning ehtiyojlarini qondirish jamiyatimizning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal qilish uchun diversifikatsiya jarayonlariga e'tibor qilish kerak bo'ladi. Lekin, biz diversifikatsiya deganimiz bilan ishlab chiqarishimiz diversifikatsiyalanib qolmaydi, korxonalarni diversifikatsiya qilish - bu ma'lum miqdorda mablag' talab qiladi. Shu bilan birga, korxonalar mahsulotlarini turini oshirgani bilan, ularning dastlabki daromadlarining ko'p qismini xarajatlar tashkil qilishi bizga ma'lum albatta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur."⁵⁸

Ushbu vaziyatda diversifikatsiya darajasiga ko'ra, korxonalarni soliqlar orqali rag'batlantirish mexanizmini joriy qilish va uni yanada takomillashtirishni yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini.

Bizning asosiy taklifimiz shuki, kichik biznes subyektlariga mahsulotlarini diversifikatsiya qilish natijasida korxonada:

- **10** ta yangi ish o'rinlari yaratilsa, yagona soliqni **10** foizga;
- **20** ta yangi ish o'rni yaratilsa, yagona soliqni **20** foizga;
- **30** ta yangi ish o'rni yaratilsa, yagona soliqni **30** foizga kamaytirish zarur.

Bunday mexanizmni joriy qilinishi:

- birinchidan, korxonalarining davlat budjetiga qo'shadigan hissasini ko'paytiradi;
- ikkinchidan, ish bilan bandlik darajasini oshiradi;
- uchinchidan, mahsulot turini ko'paytirishga yordam beradi.

Ushbu taklifni yuridik shaxslarning foyda solig'iga nisbatan ham qo'llash mumkin. Bunda ularning foyda solig'ini 10, 20, 30 foiz atrofida kamaytirish imkonini beradi.

3-bob bo'yicha xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, iqtisodiyot rivojlangani sari soliqlarni takomillashtirib borib, ularning optimal darajasini o'rnatish obyektiv zaruratga aylanishini asoslaydi. Chunki, oqilona va puxta ishlab chiqilgan soliq siyosatigina jamiyatda soliq to'lovchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini oladi. Hayot tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, tadbirkorlik subyektlari uchun ko'p turdagi va yuqori stavkalar amal qilishi natijasida soliq to'lovchilar o'rtasida soliq to'lashdan qochish hamda turli yo'llar bilan soliq obyektlarini yashirish holatlari yuzaga keladi. Shuning uchun ham, har doim mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda soliq stavkalari va imtiyozlarini takomillashtirish zaruriyati mavjud bo'ladi.

Soliq imtiyozlari mamlakat iqtisodiyotiga multiplikativ ta'sir qilib, ishlab chiqarish hajmini bir necha baravarga oshirish imkonini beradi. Shunday ekan, soliq islohotlarini tadbirkorlik subyektlari foydasi uchun to'xtovsiz takomillashtirib borish davlatning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Shuningdek, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish joizki, soliq imtiyozlari samaradorligini ilmiy asoslangan holda baholash yuqori iqtisodiy natijalarga erishishning muhim asosi hisoblanadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash natijalaridan:

- budjet loyihasini ishlab chiqishda;
- samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilishga doir choralarni o'z vaqtida qabul qilishda;
- ayrim toifadagi soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash choralarni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishda foydalanilsa, fikrimizcha, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan ko'zlangan maqsadlarga to'liq erishiladi.

Xulosa va takliflar.

Dissertatsiyani yozish jarayonida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni chiqarishga muvaffaq bo'lindi:

1. Olib borilgan tahlil natijalariga asoslangan holda shuni aytish joizki, soliq imtiyozlarining mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida roli muhim ahamiyatga ega ekanligi, soliq stavkalarining o'zgarishi hamda soliq sohasidagi islohotlarning Xorazm viloyati budjetiga ta'siri kuchli ekanligi aniqlandi.

2. Mahalliy budjetlar daromadlarini umumdavlat soliqlari hisobiga shakllantirilishi ular xarajatlarini mahalliy budjetlarning birlamchi daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig'implar hisobiga moliyalashtirish imkoni yo'qligi bilan ifodalanadi. Mahalliy budjet daromadlarining katta qismi umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, mahalliy budjetlar ixtiyoriga qoldirilgan soliq tushumlari hisobiga shakllantirilmoqda. Jumladan, 2012-2014-yillarni tahlil qiladigan bo'lsak, yuridik shaxslarning foyda solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga soliq, qo'shilgan qiymat soliq tushumlarining miqdori to'la hajmda Xorazm viloyati budjetiga qoldirilgan.

3. Xorazm viloyati budjetini daromadlar bilan ta'minlashda shahar va tumanlarning ulushlari tahlil qilinganda uning asosan Urganch shahriga bog'lanib qolganligi kuzatildi. Shuningdek soliq imtiyozlaridan foydalanish darajasida ham Urganch shahri yaqqol yetakchilik qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa qolgan hududlarda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

4. Tadqiqot natijalaridan soliq imtiyozlarining muhim jihati ayon bo'ldiki, soliq imtiyozlari optimal tarzda taqdim etilgan bo'lsa, boshqa shart- sharoitlar teng bo'lgan taqdirda, ularni qo'llash natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishiladi va belgilangan vazifalar to'liq amalga oshiriladi. Ya'ni, mintaqalarda soliq imtiyozlarining samaradorligi baholash natijalaridan, kelgusida budjet loyihasini ishlab chiqishda, samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilishga doir takliflarni O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasiga berishda, ayrim toifadagi soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash choralarini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishda

foydalanilsa, fikrimizcha, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan ko'zlangan maqsadlarga to'liq erishilada.

Chiqarilgan xulosalarga tayangan holda, hududlar iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda soliqlarning ahamiyatini oshirishga doir quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kichik biznesni mamlakat eksportidagi ulushini yanada oshirish va eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish maqsadida, soddalashtirilgan tartibda yagona soliq to'lovini to'lovchi mikrofirma va kichik korxonalariga, o'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning erkin almashtiriladigan valyutadagi eksporti ulushi quyidagilarni tashkil etsa:

✓ agar sotishning umumiy hajmida 15 foizgacha bo'lsa – yagona soliq to'lovi stavkasini 15 foizga kamaytirish;

✓ agar sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha bo'lsa – yagona soliq to'lovi stavkasini 30 foizga kamaytirish;

✓ agar sotishning umumiy hajmida 30 foizdan yuqori bo'lsa – yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunda, soliq imtiyozidan qolgan mablag'ni yangi texnika-texnologiya sotib olish va jihozlash sharti bilan berilishi maqsadga muvofiqdir.

2. **Istiqbolda yangi me'yor joriy qilib, unga asosan:** ketma-ket 3 yil davomida ishlab chiqarishning barqaror 10 foizdan ortiq o'sish sur'atlarini va rentabelligini ta'minlagan, agar mavjud bo'lsa, ushbu uch yilning ma'lum bir davrida soliq va majburiy to'lovlarni to'lanmaganligi uchun to'langan penya miqdori to'langan soliqlarning 1 foizidan kam bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlariga, 4-yil uchun ushbu subyektga belgilangan soliq stavkasini 20 foizga kamaytirgan holda hisoblash imkoniyati yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu imtiyoz amalda joriy qilinsa tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini va rentabelligini oshirishga qiziqishi oshardi, soliq va to'lovlarni o'z muddatlarida to'liq tushishi ta'minlanardi, keyinchalik qo'llanilgan soliq imtiyozlari natijasida tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida qo'shimcha mablag'lar qolishiga olib kelardi.

3. Tayyorlov savdo faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi yalpi daromadiga (haq summasiga) nisbatan 33 % qilib belgilangan. Biroq, "tayyorlov savdo faoliyati" tushunchasining aniq bir ta'rifi mavjud bo'lmasdan, asosan ushbu faoliyat qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotishni nazarda tutadi.

Amaliyotda tayyorlov savdo korxonalari uchun soliq sof foydadan olinayotganligi sababli, mazkur korxonalar sun'iy ravishda sof foydani kamaytirib ko'rsatishi va foydani noqonuniy yo'llar bilan chiqarib olayotganlik holatlari kuzatilmoqda. Shuningdek, aynan shu faoliyatni amalga oshirayotgan, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarni olib-sotayotgan korxonalar tomonidan savdo tashkilotlari uchun belgilangan tartibda yagona soliq to'lovi to'lanishi natijasida, bir hil faoliyatni amalga oshirayotgan bir subyektlarni boshqarsiga nisbatan ko'proq soliq to'lashiga to'g'ri kelmoqda.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasini 2016-yilga davlat budjeti parametrlari loyihasini tayyorlashda, tayyorlov savdo faoliyati uchun nazarda tutilgan alohida yagona soliq to'lovi stavkasini bekor qilish hamda mazkur korxonalar tomonidan yagona soliq to'lovi savdo korxonalari uchun belgilangan miqdorlarda to'lanishini belgilash, hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar uchun ham ushbu tartibni bekor qilinishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

4. Bizning so'ngi taklifimiz shuki, diversifikatsiya darajasiga ko'ra korxonalarni soliqlar orqali rag'batlantirish mexanizmini joriy qilish va uni yanada takomillashtirishni yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ya'ni, kichik biznes subyektlari (shuningdek, qishloq xo'jalik sohasidagi kichik korxonalar ham) o'z mahsulotlarini diversifikatsiya qilish natijasida korxonada:

- **10** ta yangi ish o'rinlari yaratilsa, yagona soliqni **10** foizga;
- **20** ta yangi ish o'rni yaratilsa, yagona soliqni **20** foizga;
- **30** ta yangi ish o'rni yaratilsa, yagona soliqni **30** foizga kamaytirish zarur.

Bunday mexanizmni joriy qilinishi:

- birinchidan, korxonalarining davlat budjetiga qo'shadigan hissasini ko'paytiradi;

- ikkinchidan, ish bilan bandlik darajasini oshiradi;

- uchinchidan, mahsulot turini ko'paytirishga yordam beradi.

Ushbu taklifni yuridik shaxslarning foyda solig'iga nisbatan ham qo'llash mumkin. Bunda ularning foyda solig'ini 10, 20, 30 foiz atrofida kamaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari va meyoriy-huquqiy hujjatlari.

1.1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2008. - 62 б.

1.2. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси: Расмий нашр -Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги - Т.: “Адолат”, 2014 й. - 692 б.

1.3. Ўзбекистон Республикаси "Давлат бюджетининг газначилик ижроси тўғрисида"ги Қонуни. 2004 йил 28 октябрь.

1.4. Ўзбекистон Республикасининг “Солиқ маслахати тўғрисида” ги қонуни, 2006 йил 21 сентябрь. //Халқ сўзи, - 2006 йил, 21 сентябрь.

1.5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги 2005 йил 11 апрелидаги Фармони. //Халқ сўзи. 2005 йил 12 апрель.

1.6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Микрофирмалар ва кичик корхоналарни ривожлантиришни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПФ-3620-сонли Фармони. //Халқ сўзи. 2005 йил 21 июнь.

1.7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хусусий мулк, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ишончли ҳимоя қилишни таъминлаш, уларни жадал ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4725-сонли Фармони. - 2015 йил 15 май.

1.8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Статистик, солиқ, молиявий ҳисоботларни, лицензияланадиган фаолият турларини ва рухсат бериш тартиб-таомилларини тубдан қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4453-сонли Фармони. // - 2012 йил 18 июль.

1.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 30 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида” ги ПҚ-1675-сонли қарори.

1.10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 25 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йилги асосий макроиқтисодий

кўрсаткичлар прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида” ги ПҚ-1887-сонли қарори.

1.11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 25 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлар прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида” ги ПҚ-2099-сонли қарори.

1.12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 4 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлар прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида” ги ПҚ-2270-сонли қарори.

1.13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 22 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлар прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида” ги ПҚ-2455-сонли қарори.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari.

2.1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.– Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998. - 686 б.

2.2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Тошкент: “Ўзбекистон”, -2011. - 439 б.

2.3. Каримов И.А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2005 й.

2.4. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох, этишдир. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2005. - 96 б.

2.5. Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. //Халқ сўзи. - Тошкент, 2006. - 11 феврал.

2.6. Каримов И.А. Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш-асосий вазифамиздир. // Халқ, сўзи. - Тошкент, 2007 йил 13 февраль.

2.7. Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш - барча ислохот ва ўзгаришларнинг бош мақсадидир. //Халқ сўзи. - Тошкент, 2008 йил 9 февраль.

2.8. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. - Т.: "Ўзбекистон", 2009. - 56 б.

2.9. Ўзбекистон Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизни 2014 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2015 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир” маърузаси. // Халқ сўзи, 2015 й, 17 январ, 3 бет.

2.10. Ўзбекистон Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамадан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир” маърузаси. // Халқ сўзи, - №11, 2016 й, 16 январ, 3 бет

3. Kitob va turkum nashrlar.

a) bir muallif

3.1. Гатаулин Ш.К.Солиқлар ва солиққа тортиш. - Тошкент, ДСК,-1996.-241 б.

3.2. Жураев А. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. - Тошкент: "Фан", 2004. - 243 б.

3.3. Соатов Н. Статистика. Дарелик. – Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2003. – 743 б.

3.4. Ҳараваева И.В. Налоговое регулирование рыночной экономики: Учеб.пособие для вузов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. - 215 с.

3.5. Умаров О.Қ. Солиқлар ва солиққа тортиш: Ўқув қўлланмаси.- Ф.:Фарғона Давлат Университети, 2007 . -164 б

3.6. Маликов Т.С. Молия: хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Уқув кулланма. Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA" 2009. - 288 б.

3.7. Темур тузуклари. - Тошкент: "Чўлпон", 1991. - 127 б.

3.8. Тошмуродов Т. Солиқлар. /Изохли лугат. –Т.: “Мехнат”, 2003.-184 б.

3.9. Тошмуродова Б. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. //Монография. - Тошкент: "Янги аср авлоди", 2002. - 127 б.

3.10. Тошмуродова Б. Солиқ муносабатларини оптималлаштириш. -Тошкент, ТМИ, 2004. - 265 б.

3.11. Тошмуродова Б. Солиқлар воситасида иқтисодиётни бошқариш механизми. //Монография. - Т.: "Янги аср авлоди", 2008. - 127 б.

Черник Д., Налоги. 4 издание - М.:Финансы и статистика, -2000.-430 с.

3.12. Яхёев К., Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. - Тошкент: “Гафур Гулом”, 2000. - 165 б.

3.13. Яхёев К. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. - Тошкент: “Фан ва технологиялар маркази”, 2003. - 247 б.

b) ikki muallif

3.14. Alimardonov M.I., To'xсанov Q.N. Soliq nazariyasi. – Т.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2005. - 169 b.

3.15. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F. Chet el mamlakatlari soliq tizimi. Darslik. - Toshkent, TDIU, 2011. - 512 б.

3.16. Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар. Уқув кулланма. - Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA" 2008. - 316 б.

3.17. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. - T: Sharq, 2009. -448 b.

3.18. Маликов Т.С, Хайдаров Н.Х., Молия: умумдавлат молияси. Ўқув Кулланма. Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA" 2009. - 556 б.

d) uch va undan ortiq mualliflar

3.19. Xusainov R.R., Isxaqov A.K., Urmanova D.T., Djurayev X.Z. Moliya va soliqlar. - Т.: ToshDTU, “Voriz-nashriyot”, 2014. - 336b.

3.20. Ishmuhamedov A.E., Jumayev Z.A., Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot (O'quv qo'llanma). - Т.:O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. – 192 bet.

3.21. Вахобов А., Жумаев Н., Бурханов У. Халқаро молия муносабатлари. - Тошкент: "Шарк", 2003. - 400 б.

3.22. Вахобов А., Жумаев Н., Хошимов Э. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози: сабаблари, хусусиятлари ва иқтисодиётга таъсирини юмшатиш йўллари. - Т.: "Академнашр", 2009. - 143 б.

3.23. Жураев А., Мейлиев О., Сафаров Ф. Солиқ назарияси - Тошкент, Тошкент Молия институтга, 2004. - 210 б.

4. Journallardagi maqolalarga havolalar.

4.1. Муталов А. Солиққа тортишнинг соддалаштирилган тартиби солиқ соҳасида инновацион йўналишдир. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар". - Тошкент, 2011. - № 1. - Б. 6.

4.2. Маматқулов Н. Маҳаллий бюджетларга тартибга солувчи умумдавлат солиқларидан ажратиладиган нормативларни такомиллаштириш. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар". - Тошкент, 2011. - № 7. - Б. 4.

4.3. Шеров С: Республикада солиқ маслаҳати хизматларини ривожлантириш истиқболлари. // "Bank, pul va kredit". - 2015. - № 5. - Б. 29.

4.4. Мустафоқулов О.А. Давлат бюджети тизимида солиқ тушумларини шакллантириш ва уни такомиллаштириш масалалари.// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар". - Тошкент, 2015. - № 6. - Б. 7.

4.5. Алимарданов И., Ражапов Ш.З., Тошмухамедов Д. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг товар ва хизматларини экспорт қилишда солиқлар орқали рағбатлантириш масалалари.// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар". - Тошкент, 2016. - № 2. - Б. 8.

4.6. У.В. Ғафуров. Кичик бизнесни қўллаб-қувватлашда имтиёزلардан самарали фойдаланишнинг назарий масалалари. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар". - Тошкент, 2013. - № 8. - Б. 10.

4.7. Ткачева Т.Ю. Разработка методических рекомендаций по проведению оценки эффективности налоговых льгот на региональном уровне. // "Социально-экономические явления и процессы". - РФ, 2013. - № 10(056). - С. 111-116.

4.8. Ксенда В.М. Налоговые льготы и развитие оценки их эффективности на региональном уровне.// "Economics & Law". - 2015. № 6 (52), - С. 15-25.

4.9. Юлдашев О. Солиқ имтиёзлари самарадорлигини баҳолаш методологияси. // “МОЛИЯ ВА СОЛИҚ” . - 2013. № 4. - Б. 101-104.

4.10. Курбонов З., Мисиров К. Солиқ имтиёзларининг молиявий ҳисобини такомиллаштириш масалалари. // “Bozor, pul va kredit”. – 2016. № 2. - Б. 53-56

4.11. Ҳарлибаева Р. Худудларда инвестицион фаолликнинг аҳамияти. // “Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси”. - Тошкент, 2010. - № 4. - Б. 44-45.

4.12. Тўхтахонов И., Бабаев Ш.Б., катта ўқитувчи, Умаров Н.И. Жисмоний шахсларнинг жами йиллик даромадларини солиққа тортиш тартибини такомиллаштириш масалалари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар”. - Тошкент, 2016. - № 2. - Б. 10.

4.13. Қосимова Ф.Х., Ахроров З.О. Микрофирма ва кичик корхоналарни соддалаштирилган солиққа тортиш тизимини такомиллаштириш муаммолари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар”. - 2015 й. №5. -Б. 6.

4.14. Сайдахмедов Х. Регионы Ўзбекистона продолжают наращивать свой экономический потенциал. // “Bozor, pul va kredit”. № 5 - 2011. 36-39 б.

4.15. Яхёев К. Объекти бир хил, сони кўп Солиқлар. // “Солиқ тўловчининг журнали”. - Тошкент, 2008. - №3. - Б. 41-42.

4.16. Ҳамроев О., Хужаев Б. Иқтисодий ўсишнинг самарали омили. // “Bozor, pul va kredit”. - Тошкент, 2010. - № 2. - Б. 58-60.

5. Simpozium va konferentsiya ishlariga havolalar.

5.1. Альмардонов М.И., Мейлиев О.Р. Умумдавлат Солиқларидан маҳаллий бюджетларга ажратмалар белгилаш механизмининг таҳлили. // “Дальнейшее углубление реформ в банковского-финансовой системе Ўзбекистона”. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари (2007 йил 29 сентябрь). - М.: Московский гуманитарно-экономический институт, 2007. стр. 318-321

5.2. Жураев Т. Солиқ сиёсатини такомиллаштириш йўлида. //Тошкент хақиқати. - Тошкент, 2003. 24 сентябрь.

5.3. Мейлиев О.Р. Худудлар иқтисодий барқарорлигини таъминлашда ихчамлаштирилган Солиққа тортиш тартибларининг аҳамиятини ошириш. // "Иқтисодий тараққиётга эришишда Солиқ сиёсатини янада такомиллаштириш

йўллари". Республика илмий-амалий конференция материаллари (2006 йил 4 март). - Т.: ТМИ, 2006. -398 б. //Б. 153-155

5.4. Тилабов Н.Т. Иқтисодий барқарорликни таъминлашда Солиқ сиёсатини такомиллаштириш масалалари. // "Иқтисодий тараққиётга эришишда Солиқ сиёсатини янада такомиллаштириш йўллари". Республика илмий-амалий конференция материаллари (2006 йил 4 март). - Тошкент: ТМИ, 2006. - 59 б.

6. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari.

6.1. Санакулова Б. Р. Кичик тадбиркорлик субъектларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш орқали иқтисодий ўсишни таъминлаш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Т.: - 2016. - 30 б

6.2. Абибуллаев Б.О. Бюджет даромадларини шакллантиришда маҳаллий Солиқлар ролини ошириш масалалари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. - Тошкент, БМА, 2009. - 22 б.

6.3. Есмурзаев Ж.Т. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида маҳаллий Солиқлар ва йиғимларни ундириш механизмини такомиллаштириш (Коракалпогистон Республикаси мисолида): и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. - Тошкент: БМА, 2007. - 20 б.

6.4. Жураев А.С. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг долзарб муаммолари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. - Тошкент, ДЖКД, 2005. - 46 б.

6.5. Камилов М.М. Кушилган киймат солигини ундириш механизми ва уни такомиллаштириш йўллари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. - Тошкент, БМА, 2007. - 22 б.

6.6. Сафаров Ф. Хўжалик юритувчи субъектларни табиий ресурслардан самарали фойдаланишини Солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореферати. - Тошкент, БМА, 2006. - 26 б.

6.7. Тошмуродова Б.Э. Иқтисодий тараққиётга эришишда Солиқлардан самарали фойдаланиш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. - Тошкент, БМА, 2007.- 42 б.

7. Statistik to'plamlar va internet saytlar.

7.1. Ўзбекистоннинг йиллик статистик тўплами 2013. (Ўзбекистан в цифрах) Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. - Тошкент, 2013 й, - 186 б.

7.2. Ўзбекистоннинг йиллик статистик тўплами 2014. (Ўзбекистон рақамларда) Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. - Тошкент, 2014 й, - 211б.

7.3. Ўзбекистоннинг йиллик статистик тўплами 2015. (Ўзбекистон рақамларда) Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика Кўмитаси. - Тошкент, 2015 й, - 213 б.

7.4. <http://www.soliq.uz>

7.5. <http://www.stat.uz>

7.6. <http://www.lex.uz>

7.7. <http://www.tradingeconomics.com>

7.8. <http://www.mf.uz>

7.9. <http://www.cer.uz>

7.10. <http://www.publicfance.uz>

7.11. <http://www.review.uz>

7.12. <http://www.tfi.uz>

7.13. <http://www.iet.ru>

7.14. <http://www.fmstat.ru>

ILOVALAR.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2015 yil 22 dekabrda
PQ-2455-son qaroriga
11-ILOVA

Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq STAVKALARI

N	Faoliyat turi	To'lovchilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (birlik uchun eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
				Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash	yuridik shaxslar	Egallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,06	0,04
2	Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,0

Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkasi yil boshiga - 2016 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (130 240 so'm) miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan taqdirda bunday holatlarga soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash sifatida qaraladi.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlardan
olinadigan qat'iy belgilangan soliq
STAVKALARI**

N	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
		Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvdagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	CHakana savdo:			
	oziq-ovqat tovarlari bilan	9,0	6,0	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	5,0	4,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,0	6,5	3,0
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	5,0	3,0	0,5
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo)	10,0	6,5	3,0
2	Maishiy xizmatlar	3,5	1,5	0,5
3	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	1,5	1,0
4	Boshqa faoliyat turlari	2,0	1,5	1,0
5	Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:			
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	2,0		
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,0		
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	4,0		

*) *Uy xo'jaligi, shu jumladan, dehqon xo'jaligida parvarishlangan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalar) hamda ularni so'yib, xom yoki qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlarni, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan ko'rinishda (manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari) sotish bundan mustasno.*

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
STAVKASI**

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Yuridik shaxslar	5
2	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, bundan ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan xom ashyo tovarlari mustasno*:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

**) Belgilangan (me'yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan uskunalar va tugallanmagan qurilish qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo'llanilmaydi.*

Izohlar:

Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavkada to'lanadi.

«CAP» aviakompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha modernizatsiyalashdan o'tgan aeroportlar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni 5 yil mobaynida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasiga 0,4 pasaytiruvchi koeffitsientni qo'llagan holda to'laydilar.

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
STAVKALARI**

<i>N</i>	<i>Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi</i>	<i>Soliq stavkasi, mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan %da*</i>
1	Turar joylar, kvartiralar (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	1,5
2	SHaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:	
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	1,8
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	2,5
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.metr dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralar	1,8

**) Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning inventarizatsiya qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 3 000 ming so'mdan kam bo'lmasligi kerak.*

Izohlar:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 20 328,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 8 833,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

2. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan ob'ektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ular yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob'ektlari noturar joy fondi toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.